

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO’LIMI

Qo’lyozma huquqida

UDK: 339

AXMEDOV BOBUR OLIM O’G’LI

**O’ZBEKISTONDA LIZING BOZORINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Mutaxassislik: 5A230603 –“Investitsiyalarni boshqarish (bank sektori
bo’yicha)”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. Baymuratov T.

TOSHKENT-2018

KIRISH.....	3
I BOB. LIZING BOZORINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1 Lizing bozorining mazmun-mohiyati va shakllanishining iqtisodiy-uslubiy asoslari.....	9
1.2 Lizing bozori infratuzilmasi va uning tarkibi.....	16
1.3 Lizing bozorining normativ-huquqiy asoslari.....	24
I bob bo'yicha xulosa.....	32
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA INDIKATORLARI TAHLILI.....	34
2.1 Lizing bozorini hozirgi rivojlanish dinamikasi tahlili.....	34
2.2 O'zbekistonda lizing bozorining muammolari va ularning tahlili.....	43
2.3 Rivojlangan mamlakatlarda lizing bozorining hozirgi holati va indikatorlari tahlili.....	50
II bob bo'yicha xulosa.....	55
III BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTDA LIZING BOZORINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	56
3.1 O'zbekistonda lizing bozorini rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirishda kutilayotgan natijalar.....	56
3.2 Rivojlangan davlatlarda lizing bozorining rivojlantirish tamoyillari hamda ularni O'zbekistonda qo'llashning istiqbolli jihatlari.....	61
III bob bo'yicha xulosa.....	69
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	75

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanishi sharoitida zamonaviy ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb mohiyat kasb etmoqda. Shu bilan birgalikda, hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subektlari uchun investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyati ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy va texnologik modernizatsiyalashning mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti uchun nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini quyidagicha ta'kidlaydi: "Shu nuqtai nazardan, davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim"¹.

Harakatlar strategiyasi ijrosi doirasida Prognozlashtirish va maqroiqtisodiyot tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari mutaxassislari tomonidan Janubiy Koreya Respublikasi jamg'arma birjasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Xalqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida lizing bozorini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Moliya bozorining lizing tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishish hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing xizmatlari bozorini yanada kengaytirish uchun ulkan salohiyat mavjud, bu esa raqobat ortishini, taqdim etilayotgan xizmatlar sifati

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb sayti: <http://www.uza.uz>

yanada yuqori o'sishini hamda xizmat ko'rsatishning yangi yo'nalishlari ochilishiga zamin yaratadi. Iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan islohotlar O'zbekistonda lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu islohotlar tufayli bugun davlatimiz barqaror taraqqiy etmoqda va so'nggi yillarda, ayniqsa, huquq sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston lizing bozorining asosiy islohotchisi davlat hisoblanadi va lizing bozorining samarali rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunda lizing asosiy jamg'armalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiya qilish hamda zaxiralarni oqilona taqsimlashning eng samarali usullaridan biri ekanini anglab etish zarur. Yurtimizda yaratilgan qulay sharoitlar valyuta bozorini erkinlashtirish jarayoni bilan bir qatorda lizingning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Bugun O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot tuzilmasidagi lizing amaliyotlari hajmi yildan-yilga oshayotgani kuzatilmoqda. Bundan tashqari, lizing bozorida ishtirokchilar – lizing amaliyoti bilan shug'ullanuvchi banklar va lizing kompaniyalari soni muntazam ortib bormoqda. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda lizing xizmatlari ko'rsatuvchi 126 ta tashkilot, jumladan, 24 tijorat banki faoliyat yuritmoqda. O'tgan yil lizingning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,5 foizni tashkil etdi. Joriy yilning yakunlariga ko'ra, lizing amaliyotlarining umumiy portfeli 2 trillion 529 milliard so'mni tashkil qildi. Lizing beruvchilar umumiy qiymati 710 milliard so'mdan ortiq bo'lgan 4 ming 674 ta lizing shartnomasi tuzdi, bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 65,1 foizga ko'p².

Hozirgi vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun mini-texnologiyalar, sanoatning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga ehtiyojning mavjudligi mahalliy lizing bozori rivojlanishining asosiy tendensiyasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi va lizing xizmatidan foydalanuvchi korxonalar faoliyati ushbu dissertatsiya

² O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasi rasmiy veb sayti www.ula.uz

tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotda lizing munosabatlarini rivojlantirish va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qilish jarayonlari, xususiyatlari mazkur tadqiqotning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Dissertatsiyaning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida lizing faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- lizing bozorining mazmun-mohiyati va shakllanishining iqtisodiy asoslarini yoritib berish;

- lizing bozori infratuzilmasi va uning tarkibini tadqiq etish;

- lizing bozorining me'yoriy-huquqiy asoslarini yoritish;

- lizing bozorining hozirgi rivojlanish dinamikasi tahlil qilish;

- O'zbekiston Respublikasida lizing bozorida hozirgi kunda vujudga kelayotgan muammolarni tahlil etish;

- rivojlangan mamlakatlarning lizing bozori holatini tahlil qilish;

- rivojlangan davlatlarda lizing bozorining rivojlanish tamoyillari va ularni o'ziga xosligidan kelib chiqib O'zbekistonda qo'llash istiqbollari o'rganish;

- O'zbekistonda lizing bozorini rivojlantirish konsepsiyasini yoritish.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini modernizatsiya qilishda va rivojlantirishda lizing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- iqtisodiy adabiyotlarda lizing va undan foydalanishga doir mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilgan;

- hozirgi iqtisodiy va tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonida milliy iqtisodiyotda lizing xizmatlari bozori majmuaviy tahlil qilingan;

- milliy iqtisodiyot tarmoqlari salohiyatini mustahkamlash, ularni kompleks rivojlantirish va modernizatsiyalashda lizing bozori xizmatlari samaradorligini oshirish maqsadida, rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash tavsiya qilingan;

- lizing bozori infratuzilmasining yanada rivojlantirish maqsadida lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi banklar va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va lizing loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish taklif qilingan;

- lizing bozorini tartibga soluvchi boshqaruv tizimi va uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Respublika mintaqalariga hamda iqtisodiyot tarmoqlariga lizing munosabatlarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish orqali ularning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish hamda mamlakat iqtisodiyotini ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida yanada barqaror rivojlantirish mumkin.

Tadqiqot mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Lizing xizmatlari faoliyatini tartibga solish, lizing bozorini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan ko'plab xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Jumladan, Leshenko M. I., Bukir M.Ya., Gazman V.D., Kovalev V.V., Korniychuk G.A., Adamov N.A., Tilov A.A., Ber Xans Piterlizing faoliyati doirasida ilmiy-tadqiqotlarini olib borganlar va asarlarini yaratganla³. Shuningdek, Kirillovix A.A., Kovalev V.V., Tsiganov A., Burenin V., Prosvetov G.I., Berzon N.I., Buyanova E.A. kabilar tadqiqotlarida lizing munosabatlarining tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy jihatlarini kengroq tadqiq etilgan⁴.

³Лещенко М. И. Основы лизинга. - М.: Финансы и статистика, 2004 год, - 329 с., Букирь М.Я. Кредитная работа в банке: методология и учет. М.: КноРус, 2012. 240 с., Газман В.Д. Лизинг. Статистика развития. М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2008. 592с., Газман В.Д. Лизинг. Финансирование и секьюритизация. М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2011. 472 с., Ковалев В.В. Учет, анализ и бюджетирование лизинговых операций. Теория и практика. М.: Финансы и статистика, 2005. 512 с., Корнийчук Г.А. Договоры аренды, найма и лизинга. М.: Дашков и Ко, 2010. 158 с., Адамов Н.А., Тилов А.А. Лизинг. - СПб.: Питер, 2007., Бэр Ханс Питер Секьюритизация активов: секьюритизация финансовых активов - инновационная техника финансирования банков. Пер. с нем. Ю.М.Алексеев, О.М.Иванов. - М. Волтерс Клувер, 2006.

⁴ Кирилловых А.А. Правовые основы лизинга. М.: Юстицинформ, 2009. 112 с., Ковалев В.В. Лизинг. Финансовые, учетно-аналитические и правовые аспекты. М.: Проспект, 2014. 460 с., Цыганов А., Буренин В. Инновационный лизинг. М.: МГИМО-Университет, 2013. 200 с., Просветов Г.И. Лизинг. Задачи и решения. М.: Альфа-Пресс, 2008. 160 с.

O'zbekiston Respublikasida va MDH davlatlarda lizing faoliyatini tartibga solish va boshqarish usullarining nazariy asoslari, uni tashkil etish va moliyalashtirishning milliy xususiyatlari, lizing xizmatlari samaradorligi, lizing kompaniyalari boshqaruvi va ulardagi mavjud muommolar yuzasidan mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan Vaxobov A. V., G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M., Qulmatov A.A., Murodova N.K., Xatamov O., Utamalieva Sh., Xaydarov Sh. U., Ortiqov X. A., Tuxsanov X.A. larning ilmiy ishlanmalarida tadqiq etilgan va yoritilgan⁵.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, statistik guruhlash, ilmiy abstraklash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, kartografik, qiyosiy tahlil, tarkibiy, prognozlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati mamlakat tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda lizing munosabatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va imkoniyatlari o'rganilganligida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlari va nomutanosibliklarni inobatga olgan holda lizing munosabatlarini samarali tashkil etishning strategik va istiqbolli yo'nalishlari belgilab olinganligi izlanishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida lizing bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga doir uslubiy yondashuv tavsiya etilganligi ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

⁵ A.Vaxobov "Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti". -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2006; D.G'ozibekov, O.Sh.Sobirov, A.G.Mo'minov, O.M. Quljonov. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti.-T.: Fan va texnologiya, 2004.-308b.; Qulmatov A.A. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferat.-T.: 2004. -21 b., Murodova N.K. Kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: 2008. -21 b., Xatamov O. Lizing iqtisodiy samaradorligini baholashning diskont usuli // Bozor, pul va kredit. - T, 2005, № 4. - s. 37-39., Utamalieva Sh.Razvitie lizingovogo biznesa. Bozor, pul va kredit. -T.: 2003, № 9. s.26-28., Sh.U.Xaydarov, X.A.Ortiqov,X.A.Tuxsanov. Lizing: tan olish, baholash va uning xisobi. T.:Norma,2006.-247b.;

Ishning tuzilmasining tavsifi. Tadqiqotning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 84 betdan iborat bo'lib, 9 ta rasm va 7 ta jadvaldan tashkil topgan.

Tadqiqotning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslangan.

Birinchi bob "Lizing bozorining nazariy-huquqiy asoslari" deb nomlanib, unda lizing bozori va undagi munosabatlarning nazariy va ilmiy asoslari o'rganilgan.

Ikkinchi bob "O'zbekiston Respublikasida lizing bozorining hozirgi holatitahlili" deb nomlangan. Mazkur bobda avvaliga, O'zbekistonda lizing bozorining hozirgi kunda rivojlanish dinimikasi va muammolari tahlil qilingan. Bundan keyin, rivojlangan mamlakatlarda lizing bozori va uning hozirgi holati tahlil qilingan.

Tadqiqotning uchinchi bobi esa "Innovatsion iqtisodiyotda lizing bozorini rivojlantirish masalalari" deb nomlangan. Unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda lizing bozorini rivojlantirishning umumiy konsepsiyasi o'rganilgan hamda rivojlangan davlatlarda lizing bozorining rivojlanish tamoyillari va ularni o'ziga xosligidan kelib chiqib O'zbekistonda qo'llash istiqbollariasoslabberilgan.

Dissertatsiyaning xulosava takliflar qismida ilmiy tadqiqot natijalari umumlashtirilib, kelajakda tadqiq etilishi va bajarilishi lozim bo'lgan e'tiborga molik fikr-mulohazalar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

I BOB. LIZING BOZORINING NAZARIY – HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Lizing bozorining mazmun-mohiyati va shakllanishining iqtisodiy-uslubiy asoslari

Lizing munosabatlarining mohiyati turli olimlar va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinib kelindi. Lizing amaliyotlarining hajmi kundan-kunga ortib borayotganligi hamda uning ko'pdan-ko'p shakllari va turlari qo'llanilayotganligi sababli, lizing to'g'risidagi mavjud tushunchalarga aniqlik kiritish va uning tub mohiyatini ochib berish ham nazariy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “lizing” atamasiga berilgan ta'riflar O'zbekiston hayotiga ham huddi rivojlangan mamlakatlardagi singari mohiyat kasb etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Respublika va uning halki manfaatlariga mos keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyati tug'ildi. Lizing bozor infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o'zida mujassam etdi va bu xususida bir qator qaror va qonunlar qabul qilindi.

Demak, lizing bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dastak va rivojlangan mamlakatlar uchun esa quroldir. Lizingni asosiy ma'nosi “ijaraga berish” ekan undan mamlakat fuqarolararo va mamlakatlari, ya'ni lizing munosabatlari hamma uchun, uning “cho'ntagi”dagi resurs kabi foydalidir. Qisqa qilib aytganda esa, lizing bu xorijiy investitsiyaning noan'anaviy bir toifasi bo'lib, u ijara beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasidagi munosabat hisoblanadi.

“Lizing” so'zi inglizcha bo'lib, “lease” so'zidan kelib chiqqan va taxminan, “mulkni ijaraga berish” yoki “mulkni ijaraga olish” ma'nolarini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olishdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida lizing xizmatlarini ilmiy asoslangan tasniflanishi shu shakllardan har birining vazifasi va muhim tafovutlarini hamda ularning o'rnini to'g'ri tushinishga yordam beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va tadbirkorlikning rivojlanishi asosiy kapitalni yangilash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar qidirishni, izlab topishni talab qiladi. Umuman milliy iqtisodiyot va xususan, yangi shakllanayotgan tadbirkorlik tuzilmalari ichki moliyaviy resurslarining cheklanganligi investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy manba va usullarini izlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shunday manba va usullar sifatida jahon amaliyotida xorijiy kapitalning ko'chib yurishiga asoslangan, qo'shma korporativ mulkchilikning yaratilishini keltirish mumkin. Shuningdek hozirgi moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida lizing munosabatlarini yo'lga qo'yish asosida tadbirkorlarni eng yangi texnologiya va asbob-uskunalarini foydalanish uchun olib turishiga imkoniyat yaratiladi⁶.

Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida lizing biznesning alohida bir turi sifatida qaraladi. U lizing mahsulotlarining ishlab chiqaruvchilari, iste'molchilari uchun, shuningdek shu turdagi biznes bilan shug'ullanayotgan moliyaviy vositachilar uchun ham muhim bo'lgan bir qancha vazifalarni hal etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning istiqbolli yangi usulini yaqin kelajakda keng joriy qilish, shuningdek chet el tajribasidan to'g'ri foydalanish uchun, bizning nazarimizda, lizingning iqtisodiy tabiati va mohiyatini chuqurroq anglab olish muhim masaladir. Lizingning mohiyatini to'g'ri tushunish, uning tabiatini, mazmunini va zamonaviy bozor iqtisodiyotida bajaradigan vazifalarini har tomonlama o'rganish esa milliy iqtisodiyotda uni keng ommalashtirish va rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "lizing – shunchaki ijara to'g'risidagi kengaytirilgan shartnoma yoki "lizing – ijara munosabatlarining aloxida turi" yoki bo'lmasa "lizing – butun ijara muddati davomida ijarachining mulkchilik huquqi saqlanib qoladigan ijara shartnomasi" degan fikrlarning tarafdorlari bor. Ushbu ta'riflarda lizingning maqsadi, ijara beruvchining mulkchilik huquqi saqlanib qolishi

⁶ Leasing and profitability: Empirical evidence from the airline industry, Sylvain Bourjade ↑, Regis Huc, Catherine Muller-Vibes, Transportation Research Part A 97 (2017) 30–46

ta'kidlanadi, lizing mol-mulkini qo'lga kirituvchi tomon aniqlanadi, ijara munosabatlari qayd etiladi. Shu bilan birga bu ta'riflarda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning alohida usuli bo'lgan lizingning iqtisodiy tabiati va mazmuni aks etmaydi. Mazkur ta'riflarda bitimning o'ziga yoki ijara munosabatlarning shakliga zo'r beriladi-yu, ammo uning mazmuni, mohiyati ochib berilmagan. Adabiyotlarda lizingning boshqa ta'riflari ham uchraydi.

Ayrim iqtisodchilarning qarashlariga ko'ra, lizing ko'char va ko'chmas uskunalarni ijaraga olish shartnomasini ko'zda tutadigan professional kreditning bir turidir.

Adabiyotlarda ayrim mualliflar lizingni uzoq muddatli ijara deb bilib ijarachining ijaraga olingan mol-mulkni opsiya bo'yicha sotib olish mumkinligi kabi huquqiy munosabatlar mavjudligini ta'kidlaydilar. Sotib olish huquqini beradigan yoki bermaydigan, mol-mulkni ijarachi ixtiyoriga topshirish huquqini beradigan kreditlash shakli deb hisoblaydigan ta'riflar ham uchraydi.

Ayrim adabiyotlarda lizing va ijara tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisi qo'yiladi va lizing yer uchastkasi, bino, inshoot, asbob-uskunadan, odatda, renta shaklidagi to'lov evaziga foydalanish yoki ularni qarzga olish huquqini berish tarzidagi "shakl" deb ta'riflanadi⁷. Bu tarzidagi ta'rif, birinchidan, lizingning iqtisodiy tabiatini, mazmuni, mohiyatini ochib bermaydi. Ikkinchidan, lizingning bu ta'rifida foydalanish huquqi va haq to'lash majburiyati aks etadi. Uchinchidan, iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan lizingning yoki lizing munosabatlarning mohiyati baen etilmaydi. Lizingni to'g'ri talqin etish, lizing munosabatlarning mohiyatini belgilash uchun chet el amaliyotida lizingning paydo bo'lishi va qaror topishiga undagan sabablarni chuqur bilib olish kerak. Lizing rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida gurrab rivojlanishi bir narsayu, uning rivojlanayotgan iqtisodiyotga joriy etilishining noan'anaviy usullar bilan resurs manbalarini izlash zarurati taqozo etishi boshqa narsadir.

Iqtisodiy adabiyotlarda lizingning shunday ta'riflari uchraydiki, unda ijara munosabatlari bilan ayni paytda resurslarni qarzga olish manbalarini jalb qilish

⁷ Розенберг Дж.М. Инвестиции. Терминологический словарь.М. Инфра-М.: 1997 й., с 47.

nazarda tutiladi. Lizingning bu ta'riflarida uning mazmuniga investitsiyalash uchun qo'shimcha resurs manbalarini izlaydigan ijarachi nuqtai nazaridan bir tomonlama yondashilgan. Aslida esa, lizingning iqtisodiy tabiati, opsiyonni vujudga kelishi, qarz olish munosabatlari paydo bo'lishi, qaror topishi va rivojlanishi zaruratidan kelib chiqadi. Olimlar va mutaxassislar lizingning mohiyatini ta'riflashda hozircha bir fikrga kelganlari yo'q. Shuning uchun nazariya va amaliyotda lizingning mazmuni va roli turlicha talqin etilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir qator mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan lizing toifasiga yetarlicha ta'rif berilgan. Rivojlangan davlatlarda lizing amaliyoti oqilona tashkil qilinib u uzoq yillik tajribaga ega. Hozirgi kunga qadar lizing tushunchasining mazmuniga berilgan turlicha ta'riflar mavjuddir. Umuman olganda eng birinchi, lizing mohiyatini aks ettiruvchi iqtisodiy qarashlar hattoki Arastuning "Ritorika" asarida ham keltirilgan bo'lib, unda ijara yordamida olinadigan iqtisodiy samaradorlik to'g'risida fikrlar keltirilgan. Qadimgi Rimda harbiy texnikani ijaraga olish huquqidan keladigan daromadlar to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, lizing kelishuvlari haqida birinchi bor 1066-yillardagi tarixiy asarlarda ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, Vilgelem Britaniya orollarini egallash uchun Normandiyaliklardan kemalarni lizingga olgan.

Lizingning asosiy ma'nosi "ijaraga berish" bo'lib, lizing munosabatlari hamma uchun foydalidir. Qiskacha qilib aytganda esa, lizing bu investitsiyaning noan'anaviy bir turi bo'lib, u sotuvchi, ijara beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasidagi munosabatdan tashkil topadi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan xususan, A.Vaxobov o'zining ilmiy izlanishlarida kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab - quvvatlash va tijorat banklari tomonidan sarmoyaviy kreditlashni takomillashtirish masalalarining tahlilida lizingni mohiyatini tadqiq qilgan⁸.

Lizingning bu darajada keng yoyilishi va uning bozor iqtisodiyoti tuzilmasidagi o'rnini izohlash uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ta'kidlab

⁸ Vahobov A. "Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti". -Toshkent.: "Fan va texnologiya", 2006, 78-bet.

o'tish lozim: lizing - moliyalashtirishning g'oyatda qadimiy shakli bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan va shu yo'l bilan o'zining ahamiyatini, xo'jalik yuritishning turli bozor tizimlariga moslasha olishini isbotlagan.

1.1-jadval

Lizing xizmatlari evolyutsiyasining bosqichlari⁹

<i>Evolutsiya bosqichlari</i>	<i>Xarakterli xususiyatlari</i>
I bosqich 1877-1952-yillar	• 1877-yil. Lizing tizimining paydo bo'lishi ("Bell" telefon kompaniyasi); • 1952-yil. Dastlabki mustaqil "United States Leasing Corporation" lizing kompaniyasining tashkil qilinishi; • ushbu bosqich ko'p jihatdan lizingning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun tashkiliy asos bo'ldi.
II bosqich 1952-1974-yillar	• lizing infratuzilmasining shakllanishi; • soliq imtiyozlarining kuchga kirishi va tezkor amortizatsiya usilining qo'llanishi; • fan-texnika taraqqiyoti tasirida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarin avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish yuz berdi; • assortimentning kenggayishi va mahsulotlarning tabaqalashuvi; • kichik va o'rta firmalarning rivojlanishi.
III bosqich 1974-yildan hozirgi davrga qadar	• AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida inqirozlarni vujudga kelishi; • yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi; • mahsulotni sotish muammolarining keskinlashganligi tufayli lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi; • lizing yordamida moliyalashtirish samaradorligining e'tirof qilinishi.

Bizning fikrimizcha, lizing biznesining asosiy bosqichlari va ularning iqtisodiy shart-sharoitlarini quyidagicha(1.1-jadval) tasvirlash mumkin.

I bosqich 1877-1950-yillarni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda, avstriyalik tadqiqotchi V.Xoyerning fikricha, "lizing" atamasi hozirgi ma'noda muomalaga kirdi. 1877-yilda AQShda tovarlarni faqat ijaraga berishga asoslangan shartnomalar tizimi - "lizing" vujudga keldi. "Bell"telefon kompaniyasi telefon apparatlarini sotish emas, balki ularni ijaraga berishga qaror qildi. V.Gazman

⁹ G'ozibekov D.G', Sobirov O.Sh, Mo'minov A., Quljanov O.M., "Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2004, 72-bet

ta'kidlab ko'rsatganidek, bu qadar oddiy operatsiya faqat aloqaning rivojlanishiga kuchli ta'sir etdi, deyish noto'g'ri bo'lar edi.

O'ziga xos moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan keladigan foyda yangi texnika ishlab chiqaruvchilarida katta qiziqish uyg'otdi, ular asbob-uskunalarni ijaraga berishga yuqori baho berdilar. Chunki, bu ularni oddiy sotishdan farqli ravishda, "nou-xau"dan foydalanishga bo'lgan monopol huquqini himoyalashga imkon berar edi.

Lizing qarorlarini qabul qilish jarayonida matematik-iqtisodiy modellardan foydalanish ham keng tarqalgan bo'lib, bu lizingdan foydalanuvchilarga maksimal samaraga erishish imkonini beradi. Masalan, Vei-Ting Chen va bir qator olimlar avializingda qaror qabul qilishga yordam beruvchi matematik modellar haqida tadqiqot olib borishib, lizing munosabatlaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning matematik modelini yaratishgan¹⁰.

Birinchi mustaqil lizing kompaniyasi bo'lgan "United States Leasing Corporation" 1952 yilda San-Fransisko shahrida ro'yxatdan o'tkazildi. Tezda ushbu voqeaning davomchilari juda ko'payib ketdi va ijara munosabatlarida haqiqiy inqilob to'lqiniga sabab bo'ldi. Bu yerda shuni ham qayd etish zarurki, mazkur bosqich keyingi davrlarda ko'p jihatdan savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi lizing korxonalarining rivojlanishi va faoliyati uchun tashkiliy asos bo'ldi.

II bosqich 1950-1974yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr lizing infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq. Lizing tadbirkorligi dinamikasining asosiy yo'nalishi uning kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish vositasi sifatida qo'llanilishida namoyon bo'ldi. Jahon bozor iqtisodiyotida bu jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Jumladan, AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida urushdan keyingi iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan.

Lizing tadbirkorligining rivojlanishidagi III bosqich 1973-1974 yillardagi iqtisodiy inqiroz davrida boshlanib, bu davrda 1980-1982 yillardagi

¹⁰A mathematical programming model for aircraft leasing decisions, Wei-Ting Chen et al, Journal of Air Transport Management, Volume 69, June 2018, pages 15-25

monopoliyalarning lizing biznesi bilan munosabatlarni qayta ko'rib chikish jarayoni jadallashdi va lizing rivojlanishi faoliyat sohasining kengayishi bilan bog'liq bo'ldi.

Lizingni o'zida qarz (kredit), ya'ni opsiya asosida zamon va makonda qayta taqsimlanish, oldi-sotdi, ijara, tovar krediti yoki investitsiyalash munosabatlarni birlashtiruvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmui nazarda tutilib, uning iqtisodiy tabiatini qarz (kredit) munosabati belgilaydi. Lizingda aytilgan munosabatlar negizida moliya-kredit, ya'ni taqsimot va qayta taqsimot munosabatlari, tadbirkorlik maqsadida ko'chmas va ko'char mulkdan samarali foydalanish yotadi. Lekin mohiyatan lizing g'oyat murakkab iqtisodiy aloqalarni bildiradiki, bular qarz (kredit) olish, investitsiyalash, mulkni ishlatish bundan olingan natijani subyektlar o'rtasida taqsimlashdan iboratdir.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish vositasi bo'lmish lizing raqobat natijasida paydo bo'lgan va uning muayyan afzalliklari bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun investitsiya resurslarini qidirib topish mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olishning boshqa usullariga nisbatan lizingning u yoki bu afzalliklari turli huquqiy va iqtisodiy makonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Xalqaro lizing bitimlari tuzilganida bu bitimlarning kuch-quvvati xalqaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanish darajasi bilan, lizing munosabatlarida qatnashuvchi tegishli mamlakatlarning qonunchiligi bilan belgilanadi¹¹.

Lizing bitimlari tuzilmog'i uchun tadbirkor tomonidan mol-mulkni qo'lga kiritish yoki unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olish variantlarini taqqoslash yo'li bilan, investitsiyalashga oid tegishli qarorlar qabul qilinadi, ko'char yoki ko'chmas mulkni sotishga oid mustaqil qarorlar ham uning mulkdori tomonidan qabul qilinadi. Moliyaviy kapital egasi ham, o'z navbatida, resurslarni qo'yish va diversifikatsiya qilish xususida o'z qarorlarini qabul qiladi. Ayni vaqtda, har bir tomon o'z qarorlarini chamalab ko'radi, o'zaro manfaatlar mos kelgan taqdirdagina va kelgusida manfaat ko'rishga ko'zi yetgan holatda lizing

¹¹ Газибеков Д. Г., Собиров О. Ш. “Лизинг и его развитие в Узбекистане”. -Т.: Молия, 2001.—Б.132.

bitimini tuzishga qaror qiladi. Xullas, lizing ko'char va ko'chmas mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olishdagi an'anaviy usullarga nisbatan muqobil yoki asosiy kapitalga resurslarni moliyalashning muqobili ekanligi ravshan bo'ladi.


1.2. Lizing bozori infratuzilmasi va uning tarkibi

Amaliyotda qo'llanilayotgan lizing bitimlarining bir-biridan farq qiluvchi muhim jihatlari bo'yicha u joriy va moliyaviy lizing tushunchalariga bo'linib ketgan. Qonunchilik xujjatlarida ijara bu – joriy lizing, moliyaviy ijara esa moliyaviy lizing yoki bir so'z bilan lizing deb qabul qilingan. Demak, moliyaviy ijara bu lizingdir. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrda 447-II-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi "Lizing to'g'risida"gi Qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritildi¹² va Respublikaning lizing bo'yicha qonunchiligi xalqaro andozalar talablariga moslashtirildi va O'zbekistonda lizingni moliyaviy turi qoldirildi.

G'arb mamlakatlarida lizing xizmatlari bozori lizing shartnomalarining shakl va modellari xilma-xilligi bilan va lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi turli yuridik me'yorlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida lizing xizmatlarining ilmiy asoslangan tasniflanishi shu shakllardan har birining vazifasi va muhim tafovutlarini xamda ularning o'rnini to'g'ri tushinishga yordam beradi.

Lizing jihozi to'liq qoplanadigan lizing, qoidaga ko'ra, moliyaviy lizing deb ataladi. Moliyaviy lizing, ya'ni mulk qiymati to'liq to'lanadigan lizing mulki, shu bilan tavsiflanadiki, lizing oluvchiga foydalanish uchun mulk beriladigan muddat davomiyligiga ko'ra lizing beruvchi mulki qiymatining butun yoki ko'p qismi eksplutatsiyasi va amortizatsiyasi muddatiga yaqinlashadi. Moliyaviy lizing shartnomasi muddati mobaynida lizing beruvchi lizing to'lovlari orqali mulkning butun qiymatini o'ziga qaytaradi va bitimdan tegishli foyda oladi. Moliyaviy lizing lizingning jahon miqyosida eng ko'p tarqalgan turidir va uning ko'plab xillari bor. Bular o'z mustaqil funktsiyasi va nomiga ega.

¹²www.lex.uz –Adliya vazirligining rasmiy sayti.



1.1-rasm. Lizing turlari va tasnifi¹³

To'liq qoplanmaydigan lizing odatda tezkor hisoblanadi, chunki, lizing beruvchining lizing mulkini olishi va saqlashi bilan bog'liq sarflari, qoidaga ko'ra lizing muddati mobaynida to'la qoplanmaydi. Lizing muddati mulk xizmati

¹³G'ozibekov D.G', Sabirov O.Sh. va boshqalar. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Fan va texnologiya" 2004, 62-bet.

me'yoriy muddatidan qisqa bo'lganligi tufayli lizing beruvchi uni vaqtincha foydalanishlik uchun bir necha marta berishga majbur, bu lizing obyektini, unga talab yo'qligida, qoldiq qiymatni qoplash bo'yicha uning riskini oshiradi. Shunga ko'ra barcha boshqa sharoitlarda, lizing to'lovlarining miqdori moliyaviy lizingdan ancha yuqori bo'ladi. Texnika xizmati, ta'mirlash, uskunani sug'urtasi bo'yicha majburiyatning lizing kompaniyasi zimmasiga yuklanishi operativ lizingning boshqa o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Lizing kompaniyasi, tezkor lizingda, mulkni olar ekan, undan aniq kim foydalanishini bilmaydi, shuning uchun u lizing mulki bozorining konyunkturasini yaxshi bilishi kerak. Tezkor lizing moliyaviy lizingdan shu bilan farqlanadiki, bunda sotib olish xuquqi bo'lmaydi va lizing to'lovlari lizing beruvchining barcha sarflarini qoplamaydi.

Lizing operatsiyasi o'tkaziladigan bozor sho'basiga bog'liq holda lizing bitimlarining quyidagi turlari farqlanadi:

- xalqaro tashqi lizing, bunda lizing beruvchi va lizing oluvchi turli mamlakatlarda bo'ladi, ya'ni mulkni sotuvchi boshqa mamlakatda turib, boshqa davlat rezidenti bo'lishi mumkin.

- ichki lizing, bunda bitimni barcha qatnashuvchilari bitta mamlakat vakili bo'ladi.

Lizingga berilayotgan uskunaga xizmat ko'rsatish hajmiga ko'ra mutaxassislar lizingni "sof" va "to'liq" lizingga ajratadilar.

Soflizing – bu lizingning shunday turiki, unda ijaraga olinayotgan uskunaga texnikaviy va boshqa xizmatlarni ko'rsatish mas'uliyati lizing oluvchi zimmasida bo'ladi. Bunday xolda uskunaga xizmat ko'rsatish bo'yicha chiqimlar lizing to'lovlariga qo'shiladi. Bunday munosabat moliyaviy lizing uchun xos.

To'liq lizingda uskunaga zarur bo'lgan texnikaviy xizmat ko'rsatish, uni ta'mirlash, sug'urtalash va lizing beruvchining boshqa operatsiyalari e'tiborga olinadi. Bunday xizmatlardan tashqari, lizing oluvchining xoxishiga muvofiq, lizing beruvchi malakali mutaxassis tayyorlash, marketing va tayyor mahsulot

reklamasi, xomashyo etkazib berish va hakovlar bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin.

Lizing munosabatlar tavsifiga bog'liq holda lizing bitimlari quyidagilarga bo'linadi:

- qaytarma lizing – bu tobora keng qo'llanilmoqda. Lizingning bu shaklidan korxona (lizing oluvchi) uskunaga ega bo'lgani xolda, unga asosiy ishlab chiqarish faoliyati uchun mablag' etmay qolganda foydalaniladi. Shuning uchun korxona lizing kompaniyasini topadi va unga o'z mulkini sotadi, kompaniya esa, o'z navbatida, shu korxonaga uni lizingga beradi. Natijada bunday operatsiya tufayli korxonada pul mablag'i paydo bo'ladi va bu mablag'ni, masalan, u aylanma mablag'ini to'ldirishga yo'naltirish mumkin. Bunda shartnoma shunday tuziladiki, uning amal qilish muddati tugagandan so'ng korxona uskunani sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Lizingning bu turi birinchi galda, moliyaviy ta'minlanishda qiyinchilikni his etayotgan korxonalar uchun foydalidir. Amalda bunday korxonalar lizing shartnomasi tuzish bilan bir vaqtda lizing kompaniyasi mulkini sotish va shu mulkdan foydalanishni davom ettirish foydalidir. Barqaror moliyaviy vaziyatga ega korxonalar uchun foydalanishning bunday shakli odatda maqbul emas;

- aralash lizing – o'z tarkibida moliyaviy va operativ lizing unsurlariga ega bo'lgan lizing shartnomasi turi. Aralash lizingdan foydalanish sharoitlarida lizing beruvchi muayyan sotuvchidan lizing oluvchi ko'rsatmasi bilan mulkni xususiylga oladi va lizing oluvchiga lizing predmeti sifatida beradi.

Lizing mulkini moliyalashda qatnashuvchilarga bog'liq xolda lizing quyidagilarga ajraladi:

- bo'linma lizing yoki qo'shimcha mablag' jalb etiladigan lizing, yoki lizing beruvchi qisman moliyalashtiradigan lizing. Bu lizingning eng murakkab turi, chunki ko'p yo'nalishli moliyalashtirish bilan bog'liq, odatda undan murakkab va ko'p kapital talab etiladigan loyihalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Lizing beruvchi, uskunani sotib olar ekan, o'z mablag'idan butun qiymatni emas, balki uning bir qismi to'laligi lizing bu turining o'ziga xos tomoni hisoblanadi.

Qolgan miqdorni u bir yoki bir necha kreditordan qarzga oladi. Bunda lizing kompaniyasi barcha soliq imtiyozlaridan foydalanishda davom etadi, bular ijaraga olinayotgan mulk to'liq qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi;

- ommaviy lizing – boshqa xil va tur lizinglardan shu bilan farqlanadiki, lizing beruvchi sifatida bir guruh (aktsiyadorlar) qatnashadi, bular maxsus korporatsiya (trast kompaniya va b.) ta'sis etadi va ishonchli vakil tayinlaydi, u keyinchalik lizing munosabatlarni amalga oshirish bo'yicha barcha zarur operatsiyalarni olib boradi.

Lizing mulkining yangilanish muddatiga bog'liq xolda lizing shartnomalari quyidagicha tasniflanadi:

- yangilanadigan lizing, bunda ijarachi talabi bo'yicha uskuna vaqti-vaqti bilan yangi, xuddi shu turdagi ancha takomillashgan namuna bilan almashtirib turilishi ko'zda tutiladi;

- revolver lizing yoki uskuna tadrijiy almashtiriladigan lizing, bundan lizing oluvchidan uning texnologik xususiyatiga ko'ra muntazam ravishda turli uskunalar talab etiladi. Bunday hollarda lizing shartnomasi shartlariga muvofiq lizing oluvchi muayyan muddat o'tgunicha ijaradagi mulkni lizing boshqa obyektiga almashtirish huquqiga ega bo'ladi.

Uchinchi shaxs foydalanish huquqiga ega bo'lishiga bog'liq holda lizingning quyidagi turlari farqlanadi:

- sublizing, bu – tadbirkorlik faoliyatida lizing oluvchi keyinchalik lizing obyektini uchinchi shaxsga berishini anglatuvchi majburiyatning bir turi. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni 6-moddasiga ko'ra lizing oluvchi lizing shartnomasi asosida vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun olgan lizingini uchinchi shaxsga sublizingga berish huquqiga ega. Biroq, buning uchun lizing beruvchining yozma roziligi bo'lishi talab etiladi. Bunda lizing oluvchi lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi oldida mas'uliyatli bo'lib qoladi;

- asosiy lizingda lizing obyektidan uchinchi shaxs foydalanishi ko'zda tutilmaydi.

Ayrim iqtisodchilar lizing oluvchi va lizing beruvchi tomonlarning o'zaro munosabatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, lizingni ikki turini ajratadilar. Birinchi to'g'ri, ya'ni bevosita va ikkinchisi – bilvosita lizing. Agarda mulkni ishlab chiqaruvchisi yoki uning egasi lizing beruvchi bo'lib xizmat qilsa bu bevosita lizing, agarda mulk ijaraga uchinchi shaxs orqali berilsa, u holda bunday lizing bilvosita yoki egri lizingni tashkil etadi.

Lizing o'zining bir qator foydali jihatlari bilan takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy unsurlariga, shu jumladan mehnat vositalari, jonli mehnat, texnikadan foydalanish darajasi va shu qabilarga ijobiy ta'sir o'tkazadi¹⁴.

Qisqa muddatli, ya'ni operatsion lizing juda xam qulay bo'lib ko'p jihatdan quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

- lizing bitimi qisqa muddatga tuzilishi munosabati bilan, operatsion lizing juda ham qulay, muddat tugagach lizing mulkini ijaraga beruvchiga qaytarish imkoniyati qisqa vaqt ichida bo'lganligi tufayli moliyaviy qarorlar bo'yicha hisob-kitoblar aniq bo'ladi va istiqbol natijalariga mos tushadi;

- kichik, o'rta tadbirkorlar, bozor talabidan kelib chiqib, o'z faoliyatini o'zgartirishida yaxshi natijalar beradi;

- qisqa muddatga kerak bo'lgan uskunani sotib olishdan ko'ra uni ijaraga olib ishlatish, ijaraga oluvchining fan va texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib beradi;

- lizing shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan risklar, lizingni boshqa turlariga nisbatan miqdoriy kamayadi;

- rivojlanib borayotgan va o'zgaruvchan bo'lmish iqtisodiyotda kichik biznesni rivojlantirishda operatsion lizing moliyalashtirish manbasi sifatida ko'mak beradi;

- ma'naviy jihatdan tez eskiruvchan va qadrsizlanuvchi uskunalar bo'yicha qisqa muddatli lizing shartnomalari muddatidan oldin ma'naviy eskirish risklarini, foydalanuvchi o'rniga, ijaraga beruvchi zimmasiga yuklatish imkoniyatini beradi;

¹⁴Газибеков Д. Г., Собиров О. Ш. “Лизинг и его развитие в Узбекистане”. -Т.: Молия, 2001. –Ст.132.

- lizing shartnomasini rad etish imkoniyatini yaratuvchi qisqa muddatli lizing shartnomasi ushbu shartnomani rad etish opsiyalarini to'lashni talab etsa ham, ijaradan voz kechish imkoniyatini beruvchi ushbu shartnoma aslida adolatli bahoga egadir;

- to'la xizmat ko'rsatish lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchi uskunalar uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini qo'lga kiritadi;

- ko'pincha lizing kichik kompaniya va o'rta biznes korxonalarini uchun pul mablag'larni nisbatan arzon manbai bo'lib xizmat qiladi;

- aktsiya yoki obligatsiyalarni muomilaga chiqarish evaziga mablag' jalb qilishga nisbatan, lizing, past xarajatlar bilan, bosqichma-bosqich, uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlaydi;

- lizing shartnomasi asosida olingan uskunalar bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmalarini qo'llash imkoniyati yaratiladi hamda bozor talabi va taklifidan kelib chiqqan xolda ishlab chiqarilgan mahsulot narxlarini va olinadigan foyda hajmini tartibga solish imkoniyati qo'lga kiritiladi.

Amalda lizingning samarasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti yutuqlaridan chaqqon foydalanishning obyektiv afzalliklaridan, xo'jalik faoliyati miqyoslari oshib borishidan, sarf-xarajatlar kamayishidan va butun ishlab chiqarish jarayoni jadallashuvidan xosil bo'ladi.

Agar lizing faoliyati tadbirkorlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaxshilasa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitni ta'minlasa, bozorni zarur tovarlar bilan to'ldirsa va tovar ishlab chiqarish miqyosini ko'paytirish orqali byudjet tushumlarni oshirsa, bu faoliyat samarali hisoblanadi.

Lizingning bir qator quyidagi afzalliklari bor:

- tezkor lizingning soddaligi va qulayligi, lizing shartnomasini bekor qilish va lizing mol-mulki barvaqt ma'naviy eskirish riskini o'tkazish mumkinligi;

- lizing mol-mulkiga mustaqil xizmat ko'rsatish imkoniyatini olish;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirishga nisbatan chiqimlarning birmuncha pastroq darajasi;

- ko'pgina mamlakatlarda lizing beruvchilar va lizing oluvchilar uchun yaratiladigan soliq qalqonidan foydalanish mumkinligi.

Amaliyotda lizing turlarini aniqlashda quyidagi belgilar asos bo'ladi:

- shartnoma qatnashchilarining soni;
- mol-mulkning turi;
- bozor sektori;
- lizing to'lovlarining shakli;
- majburiyatlar hajmi (xizmat ko'rsatish hajmi);
- mol-mulkdan foydalanish muddati va unga bog'liq amortizatsiya shartlari.

Lizing operatsiyasining qatnashchilari (subektlari) soniga qarab shartnomalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- lizing beruvchi va mol-mulk sotuvchisi lizing operatsiyasida bitta shaxs sifatida qatnashuvchi ikkiyoqlama lizing kelishuvlari (yoki bevosita lizing);

- mol-mulkni lizingga sotuvchi emas, balki, moliyaviy vositachi sifatida qatnashuvchi lizing kompaniyasi beruvchi ko'pyoqlama lizing kelishuvlari (yoki bilvosita lizing). Bunday kelishuvning klassik variantida uch tomon: sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi qatnashadi.

Mol-mulkning turiga qarab quyidagi xillarga bo'linadi:

- ko'char mulk lizinggi (ishlovchi mashinalar va sanoat tarmoqlari uchun asbob-uskunalar, hisoblovchi mashina va orgtexnika, transport vositalari va h.k.);

- ko'chmas mulk shaklidagi lizing (ishlab chiqarish bino va inshootlari).

Lizing operatsiyalari o'tkaziladigan bozor sektoriga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- ichki lizing, bunda shartnoma qatnashchilari bitta davlat rezidentlaridir;

- tashqi (xalqaro) lizing, bunda lizing beruvchi va lizingoluvchilar turli davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlaridirlar. Mulk sotuvchisi o'sha davlatlarning birida yoki boshqa davlatda bo'lishi mumkin.

O'z navbatida xalqaro lizing import va eksport lizinglariga bo'linadi. Bunday turdagi lizing operatsiyalarida lizing oluvchi import lizingida, va shunga muvofiq ravishda lizing beruvchi eksport lizingida qatnashadilar. Hozirgi kunda O'zbekiston uchun import lizingi xarakterlidir.

Lizing to'lovlarining shakliga muvofiq lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

- to'lovlar pul shaklida amalga oshiriladigan pullik lizing;
- lizing oluvchi lizing beruvchi bilan ijaraga berilgan uskunalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki muqobil xizmatlar ko'rsatish bilan hisoblashadigan kompensatsion to'lovli (yoki kompensatsion) lizing;
- to'lovlarning bir qismi pul ko'rinishida qolgan qismi sato'var va xizmatlarni ko'rishida amalga oshiriladigan aralash lizing.

Ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lami jihatidan lizing sof va to'la xizmat ko'rsatiladigan turlarga bo'linadi.

1.3. Lizing bozorining normativ - huquqiy asoslari

O'zbekiston iqtisodiyotidagi bugungi faol o'zgarishlar xususiy tadbirkorlik subyektlarining moddiy texnika resurslaridan, xom ashyo va materiallardan foydalana olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zaruriyati, ularning asbob-uskunalar, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalarini sotib olishlarida qator muammolarga duch kelayotganligi, xususan, ularni xarid qilish ularning moliyaviy imkoniyatiga to'g'ri kelmayotganligi qulay moliyaviy vositalardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Lizing yangi korxonalar tashkil qilingan tadbirkorlar yoki kichik korxonalarga, ishlab chiqarish uchun asosiy vositalar zarur bo'lgan, lekin buning uchun mablag'i mavjud bo'lmagan korxonalarga, ayniqsa, qo'l kelmoqda.

Shuni takidlash lozimki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratilgan bo'lib, unga xizmat qiluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va ular kompleks xarakterga ega. Agar o'tgan davrga nazar tashlab, uni tahlil qiladigan bo'lsak, XXI asr boshlaridan boshlab lizing bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni jadallashuvi hamda bunday bitimlar sonining ko'payishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki

o'sha davrdan boshlab mamlakatda lizingga oid huquqiy asoslarga ko'pgina o'zgarishlar kiritila boshlandi. Bularga misol sifatida quyidagilarni qayt qilish mumkin:

- 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. Unda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va shartlari, unda ishtirok etadigan subektlarning huquq va majburiyatlari, lizing obekti va lizing faoliyatini belgilovchi me'yorlar aniq belgilangan.

"Lizing to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni sanoat, qurilish korxonalari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik subektlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini tadrijiy ravishda yanada ko'paytirib borish uchun zarur bo'lgan lizing xizmatlarini rivojlantirishda asosiy huquqiy bazadir. Mazkur Qonunga muvofiq lizing investitsiya faoliyati sifatida baholanadi va u bir qator soliq hamda bojxona imtiyozlari va afzalliklariga ega bo'lib, bular asosiy ishlab chiqarish vositalarini kam sarf-xarajat bilan yangilash yoki sotib olish imkonini beradi.

- Kanadaning Ottava shaxrida 1988 yil 28 may kuni qabul qilingan Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi UNIDROIT Konvensiyasi. Xalqaro moliyaviy lizingning huquqiy asoslarini o'zida aks ettirgan ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi ham qo'shilgani Oliy Majlisning 2000 yil 26 maydagi qarori bilan tasdiqlangan.

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. Uning 34 bobi "Lizing (moliyaviy ijara)" deb nomlanib, lizing sohasida huquqiy munosabatlarni muvofiqlashtirish bayon etilgan. Ushbu bobda lizing, obekti va subektlari haqida ularning huquq va majburiyatlari, sublizing va lizing to'lovlari haqida tushunchalar berilgan. Bobda jalb qilingan mulk shartnomalarining muddatidan oldin bekor qilinishi ko'rsatib berilgan.

- 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan Fuqarolik Kodeksi va 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Lizing to'g'risida"gi Qonun – 2002 yil 13 dekabrda tegishli o'zgartirishlar bilan takomillashtirildi. Qonunning yangi tahriri 2003 yil 8 fevralda kuchga kirgan. Shu bilan birga 2001 yil 1 fevraldan boshlab kuchga

kirgan UNIDROITning Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi Konvensiyasi ham lizing munosabatlarining fuqarolik huquqiy meyorlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi ham lizing munosabatlarining huquqiy meyorlari tarkibiga kiradi.

- 2002 yil 28 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lizing faoliyatining rivojlanishini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3122 sonli farmoni chiqarilib, u 2002 yil 1 sentyabrdan boshlab, lizing sektorining rivojlanishini murakkablashtiradigan soliq to'siqlarini bartaraf etdi va soliqqa tortish masalalarida lizingga ham moliyalashning boshqa turlari, ayniqsa bank tomonidan kreditlash bilan bir xil sharoit yaratib berdi. Shuningdek, mamlakat parlamenti 2002-2003 yillar mobaynida Fuqarolik, Soliq, Xo'jalik-protsessual kodekslariga, "Lizing to'g'risida"gi va "Bojxona ta'riflari to'g'risida"gi qonunlarga 40 dan ortiq tuzatishlar kiritdi. Bularning barchasi mamlakatda lizing jarayonlarini tartiblovchi qonuniy asos hisoblanib, ular O'zbekistonda moliyalashning mazkur turining rivojlanishini rag'batlantiradigan progressiv qonunchilik muhitini yaratilishiga olib keladi.

Yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3122 sonli Farmoniga ko'ra ushbu sohada bir qator imtiyozlar joriy qilindi:

- lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi hamda Respublika hududiga lizingga berish uchun olib kirilayotgan texnologik uskunalar vakil bankning tasdig'i bilan bojxona to'lovlari va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi;

- lizing oluvchi subektlar lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga lizing obektiga mulk solig'ini to'lashdan ozod qilindi;

- lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olingan kreditlar foizi va boshqa to'lovlar summasi lizing beruvchini soliqqa tortishda uning jami daromadidan chegirib tashlanadigan bo'ldi.

2002 yil 13 dekabrda o'tkazilgan Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq X sessiyasida "Lizing to'g'risida"gi Qonunga bir qancha o'zgarishlar kiritildi, tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga ham

o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu 447–2-sonli “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq quyidagi ijobiy o‘zgarishlar ruy berdi:

- “Moliyaviy lizing” iborasi bevosita “lizing (moliyaviy ijara)” so‘ziga almashtirildi.

- lizing beruvchi lizing obektini mulk qilib sotib olishi va lizing obekti lizing shartnomasi tugaguncha lizing beruvchining mulki bo‘lib hisoblanishi qoidasi mustahkamlandi.

- lizing shartnomasi muddati 12 oydan kam bo‘lmaslik talabi o‘rnatildi.

- lizing oluvchiga lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obektini bozor qiymatidan past narxda sotib olish huquqi berildi.

- operativ lizing butunlay chiqarib tashlandi.

2003 yil 16 iyundagi Vazirlar Mahkamasining 260-sonli “Istiqbolda valyuta kurslarini unifikatsiyalash va valyuta bozorini liberallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori lizing operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta hisobiga lizing obyektlarini import qilish shart-sharoitlarini yengillashtirdi hamda xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

2003 yil 30 avgustda Parlament tomonidan Xo‘jalik pratsesual kodeksiga o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida lizing oluvchi shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmagan holda lizing obektini lizing beruvchi tomonidan talab qilib olishining soddalashtirilgan mexanizmi yaratildi. Bunda agar lizing oluvchi qarzni tan olib, lizing obektini qaytarmasa lizing beruvchi sudga lizing obektini qaytarish uchun qonuniy asos - sud qarorini olish uchun murojat qiladi. Lizing beruvchi lizing shartnomasidan bir tomonlama voz kechib, lizing oluvchining lizing shartnomasini buzganligi haqida sudga murojaat qiladi. Sudga yuborilgan ariza nusxasi lizing oluvchiga yuborilib o‘n kun ichiga ko‘rib chiqiladi. Shu muddat ichida lizing oluvchi o‘z noroziligini bildirishi mumkin. Norozilik bildirilmasa, sud 10 kundan so‘ng sud qarorini chiqaradi.

2004 yil aprel oyida O‘zbekiston Hukumati “Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Mazkur qarorga

muvofig, lizing oluvchilar soliqqa tortish maqsadlarida jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa shubhasiz, asosiy vositalarni lizing mexanizmi orqali sotib olishda mamlakatning kichik biznesi uchun yana bir rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qildi. Ushbu qarorga muvofig, lizing opetsariyalarini tartibga soladigan ayrim me'yoriy hujjatlarga huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan tuzatishlar ham kiritildi. Xususan, lizing obyekti bo'lmish avtotransport vositalarini ro'yhatga olish, qayta ro'yhatdan o'tkazish va hisobini yuritish tartibi takomillashtirildi.

- O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan O'RQ-136-sonli qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 269-moddasi "Mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar"ga ko'ra lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga mol - mulk solig'idan ozod qilinishi ko'rsatilgan. Shuningdek, lizing to'lovlari QQS dan ozod qilinadi, chunki bu to'lovlar tannarxga to'laligicha kiradi va Soliq bazasini daromad solig'i bo'yicha kamaytiradi. Ushbu kodeksga ko'ra, Lizing shartlari asosida olib kirilayotgan texnologik uskuna bojxonadan o'tkazish jarayonida QQS va bojxona bojidan ozod qilinadi.

- 2003 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Parlamenti tomonidan Xo'jalik Protsessual Kodeksiga o'zgartirishlarning qabul qilinishi natijasida, lizing oluvchi shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda lizing obekti lizing beruvchi tomonidan talab qilib olinishining soddalashtirilgan mexanizmi yaratildi. Taklif etilgan o'zgarishlar lizing beruvchi tomonidan nafaqat o'z operatsiyalarining hajmini oshirishga, balki ta'minot uchun yetarli aktivlari bo'lmagan kichik biznes vakillarining lizing bo'yicha uskunalar olishlariga qulaylik yaratdi. Bu esa mamlakatda lizing rivojlanishini rag'batlantirishda muhim dastak bo'lib xizmat qiladi.

- O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 sentyabrda qabul qilingan "Mikromoliyalash to'grisida" Qonunining 6-moddasi mikrolizingga bag'ishlangan bo'lib, unda quyidagilar bayon etilgan: mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi

tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

- O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 69-II-sonli Qonuni. Ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo'lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi 327-sonli Qonuni. Qonunning maqsadi oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

- Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillariga doir munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2012 yil 20 dekabrda "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi PQ-1112-sonli "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qarorga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun boj haqini - eng kam ish haqi miqdorining 5 barobaridan 2 barobari miqdorigacha pasaytirildi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan banklarda hisobraqamlarini ochish uchun to'lovlarni - eng kam ish haqi miqdorining bir barobaridan yarim barobari miqdorigacha, qishloq joylarda esa, eng kam ish haqining 0.1 barobarigacha pasaytirildi.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini

yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori Xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida beriladigan investitsion kreditlar hajmi 2011-2015 yillarda 2.8 martaga oshirilishi kerak. Bu esa, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlariga banklarning investitsion kreditlaridan foydalanish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi 1474-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturida kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- kichik biznes subektlarining ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va texnik yangilash maqsadida banklar tomonidan beriladigan investitsion kreditlar hajmini oshirish va ularni berish mexanizmini yanada takomillashtirish;

- kichik biznes subektlarini rivojlantirish maqsadida jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish;

- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga beriladigan kreditlar hajmini, shu jumladan, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmini 2011-yilda 1.3 martaga oshirish.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 11-martdagi PQ-1501-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, tijorat banklarining imtiyozli kreditlardan olinadigan daromadlarini foyda solig'idan ozod qilishdek muhim soliq imtiyozi berildi .

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi 4354-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, ularga ajratilayotgan kreditlarni, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko'paytirish, kichik biznes subyektlarining mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish, eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini hamda bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish vazifalari qo'yildi.

- Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan 2012-yil 16-iyulda qabul qilingan PF-4453 sonli "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida bozor iqtisodiyoti talablariga, xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq, byurokratik g'ovlarni bartaraf etish, litsenziya va tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, hisobot tizimini va hisobotlarni taqdim etish tartibini tubdan takomillashtirish hisobiga ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida 2012-yilning 1-avgustidan ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomil va litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasini bekor qilish belgilab berildi. Bu orqali, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar sonini birmuncha kamaytirishga hamda biznesni yo'lga qo'yish sur'atlarini keskin oshirishga erishildi¹⁵.

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi PF-4455-sonli "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinliklar berish chora – tadbirlari" to'g'risida" gi

¹⁵Chulliev Z. "BOZOR, PUL va KREDIT", "Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratib berishda qonunchilik tizimi, uning ahamiyati"- 01/2013 (188), 32 b.

Farmonga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo'naltirilgan aniq me'yor va chora - tadbirlar joriy qilindi. Jumladan, bank hisobraqamlari ochish uchun taqdim etiladigan imzolar namunasi kartochkasi notarial tasdiqlanishi hamda kichik tadbirkorlik subektlari - mikrofirmalar imzolar namunalari kartochkasida ikkinchi (buxgalter) imzo bo'lishini talab etish bekor qilindi. Shuningdek, Farmonga asosan, import - eksport shartnomalarini vakolatli banklarda ro'yxatga olish muddati 2 bank kunidan 8 soatgacha qisqartirildi¹⁶.

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 1-iyunda 1961-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda Ijaraga beruvchida (lizingga beruvchida) moliyaviy ijara bo'yicha operatsiyalarning hisobi Ijaraga oluvchida (lizingga oluvchida) moliyaviy ijara bo'yicha operatsiyalarning hisobi Operativ ijara hisobining olib borilish tartibi ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun, nafaqat, respublikamiz hukumati balki xalqaro tashkilotlar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shishmoqda. Fikrimizning yaqqol tasdig'i sifatida, Markaziy Osiyoda 2001 yildan boshlab, O'zbekistonda esa 2002 yil yanvar oyidan buyon "Markaziy Osiyoda lizingni rivojlantirish loyihasi"ning amal qilayotganini qayd etish mumkin.

Umuman, xulosa qilib aytganda lizing qonunchiligi vaqt o'tishi bilan takomillashib bormoqda. Lizing faoliyatining litsenziya talabi yo'qligi va soliq solish borasidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan imtiyozlar ushbu sohaning bosqichma- bosqich rivojlanishiga turtki bo'lmoqda.

I bob bo'yicha xulosa

Lizing munosabatlarining mohiyati bugungi kungacha turli olimlar va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Lizing

¹⁶Chulliev Z. "BOZOR, PUL va KREDIT", "Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratib berishda qonunchilik tizimi, uning ahamiyati"- 01/2013 (188), 32 b.

amaliyotlarining hajmi kundan-kunga kengayib borayotganligi hamda uning ko'pdan-ko'p shakllari va turlari qo'llanilayotganligi sababli, lizing to'g'risidagi mavjud tushunchalarga aniqlik kiritish va uning tub mohiyatini ochib berish ham nazariy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy adabiyotlarda "lizing – shunchaki ijara to'g'risidagi kengaytirilgan shartnoma yoki "lizing – ijara munosabatlarining alohida turi" yoki bo'lmasa "lizing – butun ijara muddati davomida ijarachining mulkchilik huquqi saqlanib qoladigan ijara shartnomasi" degan fikrlarning tarafdorlari bor. Ushbu ta'riflarda lizingning maqsadi, ijara beruvchining mulkchilik huquqi saqlanib qolishi ta'kidlanadi, lizing mol-mulkini qo'lga kirituvchi tomon aniqlanadi, ijara munosabatlari qayd etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda lizing xizmatlari bozori lizing shartnomalarining shakl va modellari xilma-xilligi bilan va lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi turli yuridik me'yorlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida lizing xizmatlarining ilmiy asoslangan tasniflanishi shu shakllardan xar birining vazifasi va muhim tafovutlarini xamda ularning o'rnini to'g'ri tushinishga yordam beradi.

Lizingni to'g'ri talqin etish, lizing munosabatlarining mohiyatini belgilash uchun chet el amaliyotida lizingning paydo bo'lishi va qaror topishiga undagan sabablarni chuqur bilib olish kerak. Lizing rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida gurkirab rivojlanishi bir narsayu, uning rivojlanayotgan iqtisodiyotga joriy etilishining noan'anaviy usullar bilan resurs manbalarini izlash zarurati taqozo etishi boshqa narsadir.


Lizing xizmati munosabatlari bo'yicha turli davlatlarda turlicha fikr mulohazalar mavjudligiga qaramasdan, turli imkoniyat, yengilliklar berish orqali takomillashtirish mumkinligini inobatga olsak, mamlakatimizda lizing xizmati uchun ulkan imkoniyatlar mavjuddir, shu orqali qonunchilikda aholi uchun qulay bo'lgan lizing xizmati foiz stavkalari o'rnatish, soliq bazasidan yengilliklar qo'llash orqali ko'proq samaradorlikka erishish mumkin.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA INDIKATORLARI TAHLILI

2.1. Lizing bozorini hozirgi rivojlanish dinamikasi tahlili

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mamlakat hududida ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borildi. Bunday siyosat yuritishdan maqsad, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Iqtisodiy o'sish-bu iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni hayotiy ne'matlar bo'lgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishining ko'payib borishidir. Iqtisodiy o'sish yuz berishi uchun bozor talabiga mos tovar va xizmatlarni yaratish kerak bo'ladi. Ma'lumki, iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulot(YaIM)ning ko'payishini anglatadi. Mamlakatimizda izchil olib borilayogan iqtisodiy siyosat natijasida, mamlakatimizda YaIM har yili bardavom o'sishi kuzatilmoqda. 2017 yilda YaIM 2016 yilga nisbatan 105,5% ga o'sganligi buning dalilidir.



2.1-rasm. O'zbekistonda YaIMning yillarga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)¹⁷

Ushbu dissertatsiyadagi ma'lumotlar va O'zbekiston Respublikasi lizing bozori indikatorlarining tahlili lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Lizing Beruvchilar Uyushmasiga taqdim etilgan

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida magistrant tomonidan tayyorlandi (www.stat.uz)

rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlandi. O'zbekistondagi lizing beruvchilar reytingini tayyorlash jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asoslangan holda (2017 yil 1 iyul holati bo'yicha) lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi 126 ta moliyaviy institut ro'yhatdan o'tgani aniqlandi¹⁸. Bunda, hisobot ma'lumotlariga ko'ra, bozorda 46 ta lizing beruvchi lizing faoliyati bilan faol ravishda, ulardan 15 tasi banklar lizing xizmatlarini taqdim etish bilan faol shug'ullangan.

2017-yil yakunlari bo'yicha lizing amaliyotlarining umumiy portfeli 2 trln. 684 mlrd so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida lizing beruvchilar tomonidan deyarli 7729 ta yangi lizing bitimi tuzilgan, ularning hajmi 1 trln. 553 mlrd. so'mdan oshgan bo'lib, hozir o'sish tendentsiyasiga ega.


Lizingga beriladigan obyektlar orasida texnologik uskunalar yetakchilik qilmoqda, uning lizing bitimlari umumiy tuzilmasidagi ulushi 36.4% ni tashkil etdi. Shuningdek, lizingga qishloq xo'jalik uskunalari 36.1%, kuchmas mulk 15.7% va avtotransportni 11.8% taqdim etish bilan bog'liq bitimlar hajmi ham sezilarli darajada.

Ko'rib chiqilayotgan davrda lizing kompaniyalari orasida "O'zagrolizing" (475,1 mlrd. so'm), "O'zbek Leasing International A.O." (95,8 mlrd. so'm), "O'zavtosanoat Leasing" (86,4 mlrd. so'm), "Nano Leasing" (45,0 mlrd. so'm) va "China Leasing Group" (24,1 mlrd. so'm) bozorning yirik ishtirokchilariga aylandi.

Banklar orasida "Asaka Bank" (189,8 mlrd. so'm), "Kapital Bank" (158,0 mlrd. so'm), "Ipoteka Bank" (63,7 mlrd. so'm), "KDB Tashkent" (62,9 mlrd. so'm), "Trast Bank" (43,0 mlrd. so'm) hisobot davrining yirik lizing beruvchilari sifatida qayd etildi.


2017 yil davomida amalga oshirilgan yangi lizing bitimlarida hududlar orasida eng katta ulushni Toshkent shahri egalladi – 35.6%, ikkinchi va uchinchi o'rinlardan Toshkent va Sirdaryo viloyatlari joy oldi (shunga mos ravishda 10,6% va 8,0%).

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz



2.2-rasm. Yangi lizing bitimlari hajmining o'sish dinamikasi (mlrd.so'mda)¹⁹

2017 yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha yangi lizing bitimlarining hajmi 65,1% ga oshib, 710,9 mlrd.so'mni tashkil etgan, bu o'tgan yilning birinchi yarim yilligidagi ko'rsatkichga qaraganda 280,5 mlrd.so'mga ko'p. An'anaga ko'ra «O'zagrolizing» DLK, «O'zbek Leasing International A.O.» AJ va «O'zavtosanoat - Lizing» MChJ LK kabi lizing bozorining yirik ishtirokchilari yangi lizing amaliyotlari hajmining yuqori o'sishini namoyish etdi. Shuningdek, 2017 yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha «Trast Leasing» MChJ va «Taiba Leasing» MChJ ChEKni ushbu bozorda jadal rivojlanayotgan kompaniyalar sifatida qayd etish lozim. Yangi tuzilgan lizing bitimlarining deyarli yarmi (51,5%) ushbu kompaniyalarning ulushiga to'g'ri keladi.



2.3-rasm. Yangi lizing bitimlari sonining dinamikasi²⁰

¹⁹ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017 yilda avvalgi yillarga nisbatan juda ko'p miqdorda lizing bitimlari imzolangan va bu O'zbekistondagi lizing faoliyati tarixi davomidagi rekord ko'rsatkichga etdi va 7 729 tani tashkil qildi. Jumladan tuzilgan lizing bitimlari sonining tuzilmasi qarab chiqiladigan bo'lsa, bitimlarning 85% yoki 6 592 tasi qishloq xo'jalik sektoriga to'g'ri keladi, ulardan 6 575 tasi «O'zagrolizing» DLK tomonidan tuzilgan.

Endi yangi lizing bitimlari hajmining o'sish tendentsiyasi lizing bozori ishtirokchilari orasida quyidagicha taqsimlandi. Buni quyidagi 2.1-jadvaldagi ma'lumotlar asosida ko'rishmiz mumkin. 2017 yil yakunlari bo'yicha lizing beruvchilar orasida lizing bozorining taqsimlanish tendentsiyasi oldingi yillardagi kabi saqlanib qoldi. Unga ko'ra bozorning 62% lizing kompaniyalariga tegishli. Tijorat banklariga to'xtaladigan bo'lsak, 2016 yil yakunlari bilan solishtirganda, banklar lizing xizmatlarini taqdim etish hajmini 247,5 mlrd.so'mga oshirgan. Tijorat banklarning ulushi 38% ni tashkil qildi.

2.1-jadval

O'zbekiston lizing bozori subektlarining bozordagi ulush ko'rsatkichlari dinamikasi²¹

Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Lizing kompaniyalari					
- mulk qiymati, mlrd. so'm	560,2	592,6	668,2	630,8	963,8
-ulushi	69,6%	71,7%	78,5%	64,8%	62,0%
Banklar					
- mulk qiymati, mlrd. so'm	244,9	233,6	183,0	342,3	589,8
-ulushi	30,4%	28,3%	21,5%	35,2%	38,0%
Jami	805,2	826,2	851,2	973,1	1 553,6

²⁰ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

²¹ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Agar lizing portfelining lizing beruvchilar bo'yicha taqsimlanishi ko'rib chiqiladigan bo'lsa, unda portfelning 78,2% lizing kompaniyalari ulushiga to'g'ri kelishini ko'ramiz. 2018 yil boshi holati bo'yicha lizing portfelining summasi 2 trln. 684 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich amaldagi qonunchilikda tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan lizing xizmatlarining summasi bank birinchi darajali kapitalining 25% dan oshmasligi lozimligi ko'zda tutilgani bilan xarakterlanishi mumkin.

Quyidagi 2.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, 2017-yilda «O'zagrolizing» DLK O'zbekiston lizing bozorining yaqqol peshqadamiga aylangan. Ushbu kompaniya 475,1 mlrd. so'mlik ya'ni, top beshtalik ikkinchi o'rinda turgan «Uzbek Leasing International A.O» AJ ga nisbatan qariyb besh baravar ko'p lizing xizmatlarini ko'rsatgan. Ushbu ko'rsatkich 2016 yilda kompaniya tomonidan lizing asosida taqdim etilgan obyektlardan 2,4 baravarga ko'p. Bu holatni mamlakatimizda rivojlanib borayotgan qishloq xo'jaligi sohasiga yangi texnika va texnologiyalarga talab kattaligi bilan izohlash mumkin.

Keyingi o'rinlarda esa «Uzbek Leasing International A.O» AJ va «O'zavtosanoat-Leasing» MChJ lizing kompaniyalari borishmoqda. Ular mos ravishda 95,8 va 86,5 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatishgan.«Nano Lizing» MChJ va «China Leasing Group» MChJ lar 17,9 va 14,6 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatishgan.

2.2-jadval

O'zbekiston lizing bozorida faoliyat yuritayotgan lizingkompaniyalarining

TOP – 5 taligi²²

№	Lizing kompaniyasining nomi	2017 yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlari hajmi (mlrd. so'mda)
1	«O'zagrolizing» DLK	475,1
2	«Uzbek Leasing International A.O.» AJ	95,8
3	«O'zavtosanoat-Leasing» MChJ LK	86,5

²²O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

4	«Nano Lizing» MChJ	45,0
5	«China Leasing Group» MChJ	24,1

Endi O'zbekiston lizing bozorida faoliyat olib borgan tijorat banklarining ishtirokini tahlil qilamiz. 2.3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, top beshtalikda ATB «Asaka Bank» tijorat banki peshqadamlik qilmoqda. Ushbu tijorat bankning 2017 yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlar hajmi 189,8 mlrd.so'mni tashkil etdi. ATB «Asaka Bank» tijorat bankining lizing bozoridagi peshqadamligining asosiy sabablaridan biri, bu ham bo'lsa ushbu bank tomonidan "GM Uzbekistan" AJ tomonidan ishlab chiqazilgan yengil avtomashinalarga bo'lgan talabning ko'pligi va ularni lizingga berilishidir. Ikkinchi o'rinda ATB «Kapital Bank» tijorat banki egalladi va uning 2017 yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlar hajmi 158,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda esa «Ipoteka Bank» ATIB va «KDB Bank Uzbekistan» tijorat banklari borishmoqda. Ular mos ravishda 63,7 va 62,9 mlrd. So'mlik lizing xizmatlarini ko'rsatishgan. «Trust Bank» XAB 2017 yilda 43,0 mlrd. so'mlik lizing bozorida xizmat ko'rsatishgan.

2.3-jadval

O'zbekiston Lizing bozorida faoliyat yuritgantijorat banklarining


TOP – 5 taligi²³

№	Bank nomi	2017 yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlari hajmi (mlrd. so'mda)
1	«Asaka Bank » ATB	189,8
2	«Kapital Bank» ATB	158,0
3	«Ipoteka Bank» ATIB	63,7
4	«KDB Bank Uzbekistan»	62,9
5	«Trust Bank» XAB	43,0

O'zbekistonda lizing bozori holatini tahlil qiladigan bo'lsak, 2017 yilda bozorning eng yirik lizing beruvchida jamlanishi natijasida 30,5% yangi lizing

²³ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

bitimlariga yetdi, bir yil oldin esa u 28,1% ni tashkil qilgandi. O'zbekiston lizing bozorida lizing beruvchilarning TOP-10 taligi ulushi yangi lizing bitimlari hajmidagi ulushi 80% ni tashkil qildi (2.4-rasm).




2.4-rasm. Lizing bozori subektlarining jami lizing bitimlaridagi ulushi ko'rsatkichlari²⁴

Lizing bitimlarining taqsimlanishi lizing beruvchilar qaysi lizing obyektlari bilan va qay darajada faol ishlayotgani haqida tasavvur beradi. Lizing xizmatlari bozorining rivojlanishini dinamikada tahlil qilar ekanmiz, sektorlar bo'yicha bitimlar diversifikatsiyasiga bo'lgan trendni qayd etish mumkin. 2017 yilda qishloq xo'jalik texnikasining ulushi 36,1% ni, texnologik uskunalar ulushi 36,4% ni tashkil qildi. Bu so'nggi yillarda sanoat korxonalarini modernizatsiyalash doirasida yuqori texnologik uskunalar bo'lgan talab oshayotganidan dalolat beradi. Texnologik uskunalar borasida bozorda quyidagilar talabga ega: qurilish texnikasi – 144,6 mlrd.so'm, qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan uskunalar – 67,3 mlrd.so'm; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan uskunalar – 77,6 mlrd.so'm hamda engil sanoat va tibbiyot uchun mo'ljallangan uskunalar – 41,2 mlrd.so'mdan. Aytish joizki, 2017 yilda texnologik uskunalar sektorida 566,5 mlrd.so'mlik yangi lizing bitimlari tuzildi, bu o'tgan yilga qaraganda 216,6 mlrd.so'mga ko'p. Milliy iqtisodiyotni

²⁴ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

barqaror rivojlanishida, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlanishida hududlarning o'rni ham sezilarli darajada o'z ahamiyatiga ega. Mamlakat iqtisodiyotini hududiy jihatdan oqilona tashkil etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqalar tabiiy-iqtisodiy va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy mustaqillikka erishish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, respublika aholisi farovonligi va turmush darajasini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir.

Lizing amaliyotlarining respublika bo'yicha taqsimlanishi yetarlicha bir tekis bo'lib, faqat Toshkent shahri bundan mustasno. Mamlakat bozorida amalga oshirilgan barcha yangi lizing amaliyotlarining 35,6% Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. 2017 yil yakunlari bo'yicha respublikada Toshkent viloyati (10,6%) etakchilik qilmoqda, undan keyingi uchinchi o'rinni esa ilk bor Sirdaryo viloyati (9,7%) egalladi. Sirdaryo viloyatining faollashishiga «O'zagrolizing» DLK tomonidan tuzilgan qariyb 54 mlrd.so'mlik va «Asaka Bank» ATB tomonidan tuzilgan 81,2 mlrd.so'mlik yirik bitimlar sababchidir.



2.5-rasm.Bitimlarning mamlakatimiz hududlari kesimida taqsimlanishi ko'rsatkichlari (2017-yil, foizlarda)²⁵

Lizing xizmatlarini keng ko'lamda ommalashuvi mamlakatdagi iqtisodiy holatga hamda hudularning kompleks rivojlanishiga ta'sir etadi. Chunki lizing bir vaqtning o'zida moliyalashtirish va yangi texnologiyalarni xarid qilish masalalarini hal etish, aylanma mablag'larni to'ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag'larni ozod qilish imkonini beruvchi noan'anaviy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi.

2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi lizing xizmatlari bozorini tahlil qilar ekanmiz, lizing amaliyotlarining o'sishini ushlab turuvchi omillar borligi ham aniqlandi, xususan:

- lizing kompaniyalarining past kapitalizatsiyasi;
- moliyaviy zaxiralar etishmovchiligi;
- xalqaro moliyalashtirish manbalariga chiqishning yo'qligi;
- hududiy disbalans;
- Toshkent shahrining ulushi 30% dan yuqori, viloyatlarniki – 3% dan 9% gacha.

Lizing beruvchilarning moliyalashtirish manbalaridan foydalanishi oldingi yillardagi kabi lizing sektorini rivojlantirishning belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Lizing kompaniyalari to'g'ridan-to'g'ri chet el kreditlarini jalb etish masalasi ustida ishlashi; lizing bitimlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan resurslarni jalb etish maqsadida sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilishi kerak. Sug'urta kompaniyalari, xorijdan uskunalar va texnika etkazib berish shartnomalarini tuzishda eksport agentliklarining sug'urta polisi ostiga beriladigan kafolat ta'minotidan foydalangan holda, kredit liniyalari bo'yicha banklar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun lizing kompaniyalariga qo'shimcha ta'minotni taqdim etishi mumkin. Bu o'z navbatida, erkin ayirboshlanadigan valyutadagi lizing bitimlarini moliyalashtirish hajmlarining oshishini rag'batlantiradi.

²⁵ O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining 2012-2017 yillar kesimidagi yillik hisobot ma'lumotalari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Yaqin kelajakda ushbu moliya-investitsiya zanjirining barcha ishtirokchilari o'rtasida tartibga solingan va himoyalangan munosabatlarni ta'minlovchi, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari va hududiy infratuzilmani modernizatsiyalashga ko'maklashuvchi lizing O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi istiqbolli vositalardan biriga aylanishi mumkin.

2.2. O'zbekistonda lizing bozori muammolari va ularning tahlili

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridagi subyektlarning sonini yanada ortishi natijasida asosiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa lizing xizmatiga bo'lgan talab oshib bormoqda. Kuzatishlarimiz ko'rsatishicha asosiy texnika vositalari har yili o'rtacha 10 foiz miqdorida o'z xizmat muddatini o'tab bormoqda, natijada, bu holat xo'jaliklarning asosiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, lizing munosabatlarining rivojlanishiga quyidagi to'siqlar ta'sir etmoqda:

- lizing beruvchilarning aylanma mablag'larining yetishmasligi;
- lizingga olinayotgan uskunalarga foizning yuqoriligi;
- lizing oluvchi subyektlarning to'lov qobiliyatining pastligi;
- tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi.

Tuzilayotgan lizing kompaniyalar texnologik, tashkiliy va huquqiy jihatdan mavjud ta'minot tashkilotlari va xorijiy qo'shma lizing kompaniyalari bilan teng huquqli bo'lgandagina, ular o'zaro raqobatlasha olishi mumkin. Lizing tizimida haqiqiy sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishi, lizing xizmat turlarining sifatini yaxshilash, lizing to'lov xarajatlarini arzonlashtirish, eng asosiysi esa, bugungi murakkab iqtisodiy sharoitda, keng faoliyat yuritishiga barcha imkoniyatlari yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalik subyektlari uchun tijorat banklari va lizing beruvchi kompaniyalar tomonidan bajarilayotgan lizing operatsiyalari kapitalni moliyalashtirishning

noan'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda ijara munosabatlari, garov ostidagi kreditli moliyalashtirish elementlar qarziy majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy mexanizmlar mujassamlashgan. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bunga iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlay oladigan va kapitaldan samarali foydalanishning bir vositasi sifatida alohida e'tibor berdi. Shu bilan rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanish hamda endigina rivoj topayotgan lizing xizmatlari bozorining to'laqonli amal qilishini tashkil etish maqsadida lizing faoliyati va munosabatlariga ixtisoslashgan me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish zaruriyati tug'ildi.

Lizing nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy jarayonlarga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ham ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Buni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

- mamlakatda investitsiya qo'yilmalaridan maqsadli foydalanishni kafolatlaydi;
- investitsiya siyosatini faol va samarali o'tkazilishini ta'minlaydi;
- xususiy va kichik tadbirkorlikda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag'batlantiradi;
- qo'shimcha ma'muriy organlar tuzmagan holda, faqat iqtisodiy uslublar vositasida ishlab chiqarishni rivojlantirishni investitsiyalaydi;
- mamlakatda aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi va hokazo.

Lizing bir vaqtning o'zida ham moliyalash, ham yangi texnologiyalarni harid qilish masalalarni hal etishda o'xshashi yo'q moliyaviy vositadir. Shuni ta'kidlash joizki, lizing faoliyati bir qator rivojlangan davlatlarda iqtisodiy taraqqiyotning, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning juda muhim va samarali shakli hisoblanadi. Lizing tufayli ham lizing sotuvchi, ham lizing beruvchi, ham lizing oluvchi, ya'ni lizing operatsiyasida qatnashuvchi har bir subyekt manfaat topadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing operatsiyasi tufayli eng avvalo uskuna va mashinalarning oldi-sotdisini amalga oshirib sotuv ko'lamini kengaytirish mumkin (2.4-jadval)

Mulkni lizingga berish lizing beruvchiga ham bir qator afzalliklar beradi, xususan, u o'z kapitalidan investitsiya tufayli samarali foydalanishga erishiladi. Bu afzalliklarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin (2.5-jadval)

Albatta yaratilayotgan bunday imkoniyat va imtiyozlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqargan holda aholi ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan jahon bozoriga chiqishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning 2002-yil 28 avgustdagi "Lizing tizimi rivojlanishini yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonigacha moliyaviy lizing operatsiyalarini amalga oshirishda soliq va bojxona to'lovlari bilan bog'liq juda katta chegaralanishlar mavjud edi. Mazkur farmon bo'yicha lizingni rivojlantirish uchun yangi imtiyozlar yaratildi. Ya'ni, lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan, bank kafolati ostida lizing bo'yicha respublikaga import qilinayotgan mol-mulk bojxona to'lovlaridan hamda lizing oluvchi lizing obyekti bo'yicha daromad solig'i bazasi kredit foizlari summasiga kamaytirildi. Albatta, Ushbu Farmon bo'yicha yaratilgan imtiyozlar kelajakda mamlakatda lizing operatsiyalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Lekin shunga qaramasdan, hali lizing obyekti o'z harakatida barcha soliq chegaralanishlaridan xolos bo'lganicha yo'q. Barcha rivojlangan mamlakatlarda lizingning dastlabki rivojlanish bosqichi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, bunda, ayniqsa, lizing amaliyotlari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, ayrim mamlakatlarda lizing bo'yicha sarflangan xarajatlar soliqqa tortadigan bazani hisoblashda chegirib tashlanadi va jadallashtirilgan amortizatsiya qo'llagan hollarda ham soliq bo'yicha imtiyozlar yaratilgan. Shu bois respublikada lizing amaliyotlarini yanada rivojlantirish maqsadida soliqlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berilishi lozim. Masalan, lizing kompaniyalari va tijorat banklarini lizing amaliyotlaridan olgan foydasidan soliq to'lashni ma'lum muddatga bekor qilish yoki uning hajmini ssuda amaliyotlarinikiga nisbatan sezilarli darajada kamaytirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shu bilan birga, lizing operatsiyalarining oqsab qolishiga sabab, bizning fikrimizcha, investorlarning, ayniqsa, kichik va o'rta biznes sohiblari malakasining pastligi, o'ziga qanday asbob-uskuna kerakligini aniq bilmasligi va hali lizing operatsiyalari mohiyatini to'la tushunib etmaganligidadir. Bundan tashqari, lizing kompaniyalarining moliyaviy jihatdan nochor ekanligi, aniqrog'i, moliyaviy mablag'larga muhtoj bo'lib qolganligidadir. Shuning uchun ham ularning asosiy operatsiyalarini tijorat banklari moliyalashtirmoqda.

2.4-jadval

Sotuvchi lizingning afzallik tomonlari (nazariy qarash)²⁶

Sifat jihatdan afzallik tomonlari	Afzallikni ta'minlovchi tomlar
Faol marketingning olib borish imkoni tug'iladi	Iste'molchilar doirasida quyidagi subyektlar hisobiga kengayadi: - doimo texnikaga egalik qilishda ehtiyoj sezmaydiganlar; - uskunani sotib olishga qurbi yetmaydiganlar; - dastlab texnikani amalda sinab ko'rishni istaydiganlar; - ijara shartida foydalanishni xohlovchilar; - mulkka egalik qilish huquqisiz uni mulk qilish istagida bo'luvchilar
Qarama-qarshi aloqani o'rnatish imkoniyati bo'ladi	Uskunaning nosozligini tezroq aniqlash imkoniyati
To'lovsizlik riskini bartaraf qilishga erishiladi	Lizing operatsiyasi uchun to'lov va kafolatni lizing kompaniyasining o'z zimmasiga olishi
Samarali reklamaga erishiladi	Mulk lizingi sifati bo'yicha monitoringni uni ishlatish doirasini kengaytirish, xaridorlarning potensial motivatsiyasini kuchayishi
Lizing uskunasi uchun zarur bo'lgan ehtiyot va butlovchi qismlarga talabni oshiradi	Mulk lizingidan foydalanishning turli tumanligi ehtiyot qismlarga bo'lgan talabning kengaytirishiga olib kelishi
Investitsiya qilish kengayadi	Uskunalarining oldi-sotdisining tezlashishi ishlab chiqaruvchi ixtiyorida bo'lgan investitsiyani qisman holi qilishi

Qo'shimcha ravishda yana shuni aytish kerakki, hali ham respublikada targ'ibot ishlarini olib boorish tadbirlariga yetarli e'tibor bermay kelinmoqda. Joylarda tadbirkorlarga mana shunday yangi qulay va manfaatli moliya xizmatlari to'grisida tashviqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

²⁶ Коршунова Н.М., Шабалин М.Б. «Лизинг». Учебный пособия. М.: Юнити: 2001 г. Ст. 65.

Jahon iqtisodiy banklarning lizingning kapital qo'yilmalarini yetarli darajada saqlab turishga xizmat qiluvchi moliyaviy vosita sifatidagi yuqori samaradorligidan dalolat bermoqda. Tijorat banklarning lizing moliyalashtirishning tijorat banklari negizida tashkil qilinadigan lizing kompaniyalari yoki banklarning o'zi amalga oshiradi. Shubhasiz, biznesning o'ziga xos bu turi bilan shug'ullanish banklarning o'ziga yoki ularning maxsus bo'limlariga, shuningdek, banklar bilan aloqador moliyaviy vositachilar uchun qulaydir.

2.5-jadval

Bank uchun lizing operatsiyalarining afzalliklari (nazariy qarash)²⁷

Strategik afzalliklar	Afzallikni ta'minlovchi omillar
Kreditorni himoya qilish darajasi oshadi	Oldi-sotdi lizing subyekti bilan ta'minlanadi. Bankrot bo'lish xavfi tug'ilganda lizing obyekti mulk egasi qaytarib beriladi.
Lizing davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi, soliq imtiyozlari beriladi	Lizingberuvchi hisobidan soliq imtiyozini olish imkoni bo'ladi. Turli soliq shartlari holatida lizing beruvchiga lizing kelishuvlari evaziga qo'shimcha imtiyoz olish imkonini beradi.
Ishlab chiqarish vositalarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish imkoni tug'iladi	Tovar ishlab chiqaruvchilar uchun lizing munosabatlarga, ya'ni subyektlarni jalb qilish va shu asnoda ularning bozorini kengaytirish imkoni tug'iladi. Texnikaga bo'lgan talabni to'lash qobiliyati qo'llab-quvvatlanadi. Mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish ko'lamini kengayadi, sifati oshadi.
Davlat manfaatlarini realizatsiya qilish qo'llab-quvvatlanadi	Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya jihatdan qayta qurollanish tezlashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyani jalb qilish imkoniyati tug'iladi va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish evaziga davlat byudjetiga soliq tushumlari ko'payadi
Lizing beruvchining moliyaviy holatini mustahkamlaydi	Lizingdan olingan daromadlar va xarajatlar bir vaqtning o'zida realizatsiya qilinadi.
Moliyaviy leveraj samaralibo'ladi	Lizing beruvchining lizing obyektidan oladigan yillik samarasi, odatda, kredit uchun foiz to'lovlaridan yuqori bo'ladi.

Bugun biz O'zbekiston Respublikasida lizingning huquqiy asoslari shakllanayotganligini ishonch bilan aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi lizing shartnomasining mazmuni, lizing subyektlari va ularning

²⁷ Коршунова Н.М., Шабалин М.Б. «Лизинг». Учебный пособия. М.: Юнити: 2001 г. Ст. 68.

huquq va majburiyatlarini, shuningdek, lizing muomalalarida ishtirok etayotgan subyektlarning javobgarligini, lizing obyektlarini, sublizingni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan, lizing to'lovi – bu lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga to'lanadigan hamda lizing obyektini sotib olish va lizing stavkasi bilan bog'liq barcha sarf xarajatlarni o'z ichiga olgan pul summasidir.

Respublika tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1997 yil 29-martda 11-sonli bayon bilan qabul qilingan 327-sonli: O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi” yo'riqnomasiga amal qiladi.

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tartib – lizing operatsiyalarini o'tkazish jarayonida bank bilan lizing beruvchi, shuningdek, lizing oluvchi bilan lizing obyektini ishlab chiqaruvchi subyekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Biroq mazkur tartib lizing beruvchi bankning lizing obyektlarini o'z shaxsiy mablag'lari hisobiga sotib olishni nazarda tutadi. Vaholanki, bu banklarga lizing operatsiyalari hajmini jalb qilingan mablag'lar hisobiga ko'paytirish imkonini bermaydi.

Bizning Respublikada lizing munosabatlari bo'yicha tajribalarimizning yetarli emasligi bir qator muammolarni, jumladan:

- iqtisodiyotimizni ko'p ukladli tizimga o'tkazish;
- fermer yoki qishloq xo'jaliklarini dastlabki kapital bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligini o'sib borayotgan texnikaga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- baho tizimini takomillashtirish, ya'ni qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi sanoat korxonalari ulgurji baholari bilan qishloq xo'jaligi harid baholarining ekvivalentligini ta'minlash kabilarning hal etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunga kelib yuqorida qayd etilgan muammolar asta-sekin hal etilmoqda, lekin lizing operatsiyalarini kengaytirishga quyidagi omillar qarama-qarshi ta'sir etmoqda:

- soliq siyosatining to'xtovsiz o'zgarishi;

- qo'shni mamlakatlardagi siyosiy notinchlik;
- kredit resurslarining yetishmasligi;
- lizing firmalarining kamligi, ularning doimiy harakatlanishi uchun huquqiy bazaning takomillashmaganligi;
- lizing firmalarida xizmat qiluvchi kadrlarning yetishmasligi.

Yuqoridagi muammolarni hal etilishi bevosita qishloq xo'jaligida chet el texnikasini qo'llash va chet el investitsiyasining oqib kelishiga yo'l ochib beradi. Chet el texnikasini bizning qishloq xo'jaligida lizing shakli orqali qo'llanilishi eksportli lizing deb ataladi.

Eksportli lizing – bu chet el lizing kompaniyalari tomonidan yoki firmalari ishlab chiqarish vositalarining boshqa bir davlat ijarachilariga taqdim etishdan iboratdir.

Tijorat banklarning lizingning afzalliklaridan biri shuki, bunda boshqa mamlakatlarning takomillashgan texnika va jihozlaridan foydalanish tijorat banklarning shartnomalarga ko'ra moliyaviy va soliqlar bo'yicha yengilliklardan foydalanish imkoniyati yaratildi. Tijorat banklarning Valyuta Fondining qaroriga binoan chet el mashina va mexanizmlarini ijaraga olish, ijaraga oluvchi mamlakatning chet el qarzlari miqdorini oshirmaydi. Bizning respublikamizda tijorat banklarning lizingdan foydalanish masalasini mamlakatimizda qo'shma lizing kompaniyalari yoki firmalarini tuzish yo'li bilan hal etish mumkin.

Chet el amaliyoti shuni ko'rsatadiki, alohida viloyat va hududlarda lizing operatsiyalari bo'yicha keng qulayliklar mavjud. Bunday qulayliklar nafaqat bizning iqtisodiyotimizga, balki aholi turmush darajasi nochor bo'lgan nostabil joylarga ham zarurdir. Shuning uchun bizning iqtisodiyotimizda lizing tarmog'ini vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish hammuhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari darajasini ko'tarish uchun – Tijorat banklarning lizing kompaniyalari bilan samarali bitimlar tuzish lozim. Chunki, mana shu operatsiyalar orqali ham sanoatni, ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin. Sanoat

va ishlab chiqarishi yuqori bo'lsa, demakki, eksport salohiyatimiz ham yaxshi bo'lishi mumkin. Agar mamlakatimiz eksportdan ko'plab valyutaviy tushumlar olsa, demakki savdo balansimiz ijobiy bo'ladi. Savdo balansi ijobiy bo'lsa, to'lov balansining ijobiy bo'lishiga zamin yaratiladi. Iqtisodiyotni o'sishi yuqori mamlakatlarning aholisining yashash sharoiti va milliy daromadi yuqori bo'ladi.

2.3. Rivojlangan mamlakatlarda lizing bozorining hozirgi holati va indikatorlari tahlili


Rivojlangan mamlakatlar bozorida lizing moliyaviy dastak sifatida o'zining boshqa turdagi kredit va investitsiyalardan qulayligi va samaradorligi bilan birmuncha ajralib turadi. Shunday qulaylikka ega bo'lgan lizing turlaridan biri bu "dabl din" bo'lib uning afzalligi ikki va undan ortik davlatlarning soliq imtiyozlaridan yaxlit foydalana olish imkoniyati bilan izohlanadi. Masalan, XX asrning 80-yillarida xalqaro lizing amaliyotida qator samolyotlar aynan "double din" asnosida lizingga berilgan. Bu jarayon AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida amalga oshirilgan.

Agarda lizing beruvchi mulk xuquqida bo'lgan xolatda Buyuk Britaniya soliq tizimiga ko'ra birmuncha qulayliklari mavjud bo'lgan, AQSh soliq tizimiga ko'ra lizing beruvchi bunday xolatda zarar ko'rgan, ularda lizing beruvchi ko'p jihatdan mulkni boshkarish xuquqida bo'lishi iqtisodiy jihatdan samarali hisoblangan. Shunday qilib, lizing kompaniyasi Buyuk Britaniyadan samolyotlarni sotib olishgan va ularni AQSh lizing kompaniyalariga lizing va ijaraga berishgan, ular o'z navbatida mahalliy havo yo'llariga bu samolyotlarni lizingga berishgan.

Kuzatuv va tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda bu turdagi lizingdan Fransiya va Germaniya, AQSh va Fransiya, Yaponiya va AQSh kabi davlatlar va boshqa ko'plab mamlakatlar foydalanishlari mumkin. Lizing bozorini mintaqalar bo'yicha rivojlanishida so'ngi uch yilda Shimoliy Amerikada faoliyat ko'rsatayotgan lizing kompaniyalari rivojlanib, dunyo bozorida peshqadamlik qilmoqdalar.

Quyidagi rasmda mintaqalar bo'yicha lizing bozorining ulushi va rivojlanish

tendentsiyalari berilgan. Yevropada 2016 yilda kuchmas mulk lizingi 163 mlrd. evro miqdoridagi hajmda bo'lib (bu 2015 yilga nisbatan 18 foiz ko'proq), shu davrdagi uskunalar lizingi hajmi o'zgarmagan holda 130 mlrd. yevroni tashkil etdi (2015 yilga nisbatan 0,45 foizga o'sgan). Yevropadagi jami asosiy vositalar investitsiyalari hajmida lizing 12,5 foizni tashkil qiladi.



2.6-rasm. Dunyo mintaqalarida lizing xizmatlari dinamikasi, mlrd. AQSh dollar²⁸

Biroq bu ko'rsatkich mamlakatlar bo'yicha turlicha bo'lib, Gollandiyada 6,3 foizni tashkil etsa, Italiyada 6,7 foizga teng. Yevropada kompyuter va ofis uskunalari lizing operatsiyalari o'rtacha 12,5 foizga teng va 4 foizi yirik hamda qimmatli mulklar hamda qimmatli samolyotlar, kemalar va shu kabilar ulushiga to'g'ri keladi²⁹.


Keyingi yillarda ishlab chiqaruvchi va lizing kompaniyalari o'rtasida bitimlar tuzish keng ko'lamli tus olib ulgirmoqda. Bunday kelishuvlarga tayangan holda ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini sotish bilan birga lizinga taqdim etmoqda. Bu o'z navbatida uning savdo doirasini yanada kengayishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, lizing tashkiloti bu holatda ishlab chiqaruvchining savdo tarmoqlari orqali

²⁸London Financial Group, White Clarke Group Global Leasing Report 2016 asosidamagistrant tomonidan tuzilgan

²⁹London Financial Group, White Clarke Group Global Leasing Report 2016 asosida magistrant tomonidan yig'ilgan

lizingni yo'lga qo'ygan bo'lib bu turdagi lizing yo'nalishi "savdoga ko'mak" (sales-aid) nomini olgan.

2000-2005- yillar oralig'ida Shimoliy Amerika mintaqasida lizing xizmatlari miqdori boshqa mintaqalarga nisbatan birmuncha baland bo'lgan, ammo 2008-2013 yillar oralig'ida Yevropa mintaqasi lizing xizmatlari ko'lami ortib ketganiniko'rishimiz mumkin.



2.7-rasm. 2016-yilda dunyo mintaqalari bo'yicha lizing xizmatlari indikatori (foizda)³⁰

Lizing oluvchilar faoliyat turlari bo'yicha lizing bozori tahlili shuni ko'rsatadiki, lizingdan hamma turdagi korxonalar foydalanadi. Ishlab chiqarish sohasi vakillari bilan birgalikda qurilish va xizmatlar ko'rsatish sohalari vakillari ham lizing oluvchilar sirasiga kiradi. 2016 yilda xizmat ko'rsatuvchi sohalar sirasiga jami uskunalar lizingining 50 foizi to'g'ri kelgan.

2016-yilgi dunyo mintaqalari bo'yicha lizing xizmatlari indikatori ma'lumotlarini olsak, bu yerda jami dunyo bo'ylab lizing xizmatlari foizi quyidagicha:

- Yevropa mintaqasida - 31 foiz;
- Shimoliy Amerika – 38 foiz;
- Osiyo – 26 foiz;

³⁰London Financial Group, White Clarke Group Global Leasing Report 2016 asosida magistrant tomonidan tuzilgan

- Janubiy Amerika -1foiz ;
- Avstraliya – 3 foiz;
- Afrika -1foiz ;

Lizing xizmatlari Shimoliy Amerikada yaxshi ko'rsatkichlarga egadir.

2.6-jadval

Dunyo mamlakatlarining lizing bitimlari tarkibida texnologik jihozlarning ulushi, foizlarda³¹

Davlatlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
AQSh	17,1	21	22	22	22	22	21,5
Yaponiya	6,3	6,8	7,2	9,8	8,9	9,6	8,4
Germaniya	14,3	14,7	5,8	16,6	16,4	16,7	17
Koreya	4,8	8,7	8,5	8,1	9,8	9,4	9,1
Buyuk Britaniya	18,5	19,8	23,8	31	28,6	31,1	33,7
Frantsiya	10,5	11,1	12,8	12,5	13,1	14,2	15,3
Italiya	13,1	12,3	10	9,4	11,7	13	14,1
Kanada	15,1	20,8	20,8	32	31	32	32
Avstraliya	12	27,5	27,5	40	40	40	40
Shvetsiya	19,2	18,2	24,6	24,4	22,7	22,9	26

Dunyo mamlakatlarining lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulushi bo'yicha xalqaro reyting va tahlil markazlarining bergan ma'lumotlarida so'nngi 10 yil ichida, ya'ni 2010-2016 yillar mobaynida Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari etakchi o'rinlarniegallab kelgan. 2016 yil yakunlari bo'yicha ushbu davlatlar lizing bitimlarida texnologik jihozlarga tuzilgan bitimlar ulushi mos ravishda 33.7 va 21.5 foizlarni tashkil etgan.

³¹(1) Australian Equipment Lessors Association (total leasing as a percentage of private capital investment). (2) US Dept. of Commerce. Economics & Statistics Administration. Bureau of Economic Analysis and Equipment Leasing Association of America(equipment leasing as a percentage of business investment in equipment) . (3) Japan Economic Planning Agency and Japan Leasing Association (4) Leaseurope Annual Reports. (5) Statistics Canada and Equipment Lessors Association of Canada (6) Korea Leasing Association. (7) Brazilian Association of Leasing Companies. (8) London Financial Group. (9) White Clarke Group Global Leasing Report.

AQSH davlatida lizing bitimlari tarkibida texnologik jihozlarning ulushi 2010–yilda 17,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 21,5 foizni tashkil etgan. Avstraliya davlati bilan solishtirganda texnologik jihozlar bo'yicha lizing bitimlari hajmining oshish tendensiyasi AQSHga nisbatan bir muncha baland ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Dunyo mamlakatlari ichida 2013-2016yillar lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulushi yuqori bo'lgan Avstraliya hisoblanadi. Uning ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'sish dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, 2010 yilda 12 foizni tashkil qilgan bulsa, 2016 yilga kelib 40 foizni tashkil etgan. Bunga asosiy sabab, mamlakatda texnologik jihozlarga bo'lgan talab oshgan. Kanada iqtisodiyotida, texnologik jihozlarga bo'lgan talabning ko'payishi va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash dasturlarining joriy etilish evaziga, texnologik jihozlarga tuzilgan lizing bitimlari salmog'i ortgan bo'lib, 2013 yilda eng yuqori ulushga, 32 foizga ega bo'lgan. Germaniya davlatida 2012 yil yakunlari bo'yicha texnologik jihozlarga bo'lgan bitim so'nngi o'n yillikda eng ko'yi ko'rsatkich, 5.8 foizni tashkil etgan. Bu o'z navbatida, Germaniya lizing bozorida texnologik jihozlarga bo'lgan talabning 2012 yilda pasayganliga va boshka sohalarning ulushi ko'payganligidan dalolat beradi.

Lizing xizmatlarida rivojlanishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'rsatkichi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Dunyo moliya va lizing bozorini o'rganuvchi xalqaro tashkilot "White Clarke Group Global" kompaniyasining yillik hisobotlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, so'ngi besh yillikda, 2012-2017 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulotda lizing ulushi yuqori bo'lgan davlat Estoniya hisoblanib, 2016-2017 yillarda mos ravishda yalpi ichki mahsulotda lizing ulushi 5,91 va 4,81 foizni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha xalqaro reytingdagi navbatdagi davlat Shvetsiya hisoblanib, 2011 yilda 1.75% ni tashkil yetgan bo'lsa, 2017-yilda 3.30 % ga ya'ni ikki barobarga oshgan.

Rivojlangan davlatlarda lizing ko'p pul mablag'larini jalb etmasdan ishlab chiqarishni kengaytirishni ta'minlash va uni yangilashga imkon beruvchi ishlab

chiqarish sektorini texnik qayta qurollantirishning samarali vositasi ekanligi namoyon bo'lmoqda. Ushbu vositani qo'llash va rivojlantirish uchun taraqqiy etgan davlatlarda kamida ikki ko'rinishdagi muhim soliq yengilliklari mavjud va iqtisodiyotning lizing sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli tadbirdan faol foydalanmoqdalar. Lizing xizmatining afzalligi jahon moliyaviy xizmatlari bozorida ham o'z isbotini topgan.

II bob bo'yicha xulosa

Mamlakatimizda lizing xizmatlari bozori so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Lizing xizmatlari mamlakatda korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanishida va ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining texnologik taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda lizing ko'p pul mablag'larini jalb etmasdan ishlab chiqarishni kengaytirishni ta'minlash va uni yangilashga imkon beruvchi ishlab chiqarish sektorini texnik qayta qurollantirishning samarali vositasi ekanligi namoyon bo'lmoqda. Ushbu vositani qo'llash va rivojlantirish uchun taraqqiy etgan davlatlarda kamida ikki ko'rinishdagi muhim soliq yengilliklari mavjud bo'lgan va iqtisodiyotning lizing sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli tadbirdan faol foydalanmoqdalar. Lizing xizmatining afzalligi jahon moliyaviy xizmatlari bozorida xam o'z isbotini topgan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, lizingni joriy etish va uning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida keng qo'llanilishi davlatning ishonchli o'sishida garov bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning lizing to'g'risidagi qonunlariga kiritilgan yangi o'zgartirishlar bozor infratuzilmasi qulay investitsiya iqlimini vujudga keltiribgina qolmay, investorlarning keng miqyosda investitsiya kiritishlariga ham zamin yaratdi. Eng muhimi, ana shu ishlarning samarasi tufayli mamlakatimizda tashkil etilgan lizing kompaniyalari faoliyatlarida o'zgarishlar kuzatildi. Ayni paytda, mazkur kompaniyalar bilan birgalikda mamlakatimizning bir qator yetakchi tijorat banklarida lizing amaliyotlari yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida, yurtimizda yangi bozor infratuzilmasining rivoj topishi va sog'lom

raqobat vujudga kelishi uchun qulay muhit yaratdi. Muhimi, endilikda mijozlar lizingga yangi texnologiyadan tortib, kompyuter va qishloq xo'jaligi texnikalarigacha xarid qilish imkoniga ega bo'lishdi.

III O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA LIZING BOZORINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1 O'zbekistonda lizing bozorini rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirishda kutilayotgan natijalar.

O'zbekistonda lizing xizmatlarini samaradorligini oshirishda investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etib, yildan yilga investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ko'plab korxonalar moliyaviy resurslarni va yangi texnologiyalarni joriy etishda kiyinchiliklarga uchradi. Olimlarimiz tomonidan ta'kidlanganidek, "bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxonalar faoliyati mulk shaklidan kat'iy nazar, murakkab iqtisodiy jarayonlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Korxona faoliyatida bir tomondan moliyaviy resurslarning taqchilligi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, xo'jalik subyektlarining keskin raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishlariga, uchinchi tomondan esa chetdan investitsiya jalb qilish maqsadida korxonalar investitsiya jozibadorligini oshirishga to'g'ri keladi"³², moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi omillardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, "Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish buyicha tanlagan strategiyamizni va inkirozga karshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftihor bag'ishlaydi, albatta"³³, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom

³²N.M.Rasulov. Korporativ boshqaruv - investitsiyalar samaradorligi kafolati. -T.: TDIU nashriyoti, 2011 yil,- 86 b.

³³O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan "Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 16.01.2010

Karimov ta'kidlaganlaridek, iqtisodiy islohotlarni barcha sohalarda olib borish doimiy rivojlanishga asos yaratdi. O'zbekistonda lizing bozorini yanada taraqqiy etishi bir qator omillarga bog'liq, ular orasida qulay qonunchilik muhitini va lizing kompaniyalariga foydali investitsiyalar kiritish imkoniyatini alodida qayd etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning investitsiyalarga oid quyidagi fikrlarini keltirish kifoya qiladi, deb hisoblaymiz: «Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi». Iqtisodiyotni modernizatsiyalash esa, o'z navbatida, katta hajmdagi investitsiyalarni va loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullarini qo'llashni taqozo qiladi. Lizing xizmatlari bozorini moliyalashtirishda, avvalo investitsion loyihalarni o'rganib chiqib, kerakli tarmoqlarga investitsiya sifatida lizing moliyaviy dastagini qo'llash muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyot ravnaqini lizing tizimisiz tasavvur etish qiyin. Zotan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda mazkur zamonaviy tarmoqning ahamiyati beqiyos. Moliyalashtirish usullaridan bo'lmish moliyaviy lizing bank krediti evaziga moliyalashtirish usuliga nisbatan qator afzalliklarga egadir, kichik tadbirkorlik subektlari toifasiga kiruvchilar uchun qulay va ochiqdir. Lizing xizmatlarining maxsus ravishda rivojlanishiga 2002-yilda qabul qilingan va O'zbekistan qonunchiligiga kiritilgan tartibga solishlar asos bo'ladi. 2002-yil 28-avgustda "Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3122-sonli O'zbekistan Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi. O'zbekistan Respublikasi Birinchi Prezidentining 3122-sonli farmoni qabul qilinishi munosabati bilan bank krediti evaziga moliyalashtirishda hamda lizing operatsiyalarini joriy etishda teng soliq shartlarini shakllantirishga asos soldi va moliyaviy xizmatlari bozorida qo'shimcha raqobat muhitini yaratishga olib keldi. Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitining rivojlanishi moliyalashtirish qiymatining pasayishiga va moliyaviy xizmatlar doirasining kengayishiga olib keladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, kichik va

o'rta korxonalar hamda tadbirkorlar o'z ishlab chiqarishlarini yo'lga qo'yishda hamda yangilashda kengroq doiradagi moliyalashtirish usullarini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lishdi. O'zbekistonda lizing bozorining yanada taraqqiy etishi bir qator omillarga bog'liq, ular orasida qulay qonunchilik muhitini va lizing kompaniyalariga foydali investitsiyalar kiritish imkoniyatini alohida qayd etish mumkin. O'zbekiston lizing sektorini yanada rivojlantirish, uning xalqaro maydonlarga integratsiyasini taminlash maqsadida 2012-yil 4-8 aprel kuni Toshkent Xalqaro lizing forumi o'tkazildi. U lizing jamoatchiligi vakillari muloqoti uchun interaktiv maydon bo'lib xizmat qildi. Mamlakat ishlab chiqarish mehnat resurslarining asosiy qismi qishloq xo'jalik sektoriga to'g'ri kelishi munosabati bilan lizingning katta qismi qishloq xo'jalik texnikasi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalariga to'g'ri kelishi kuzatiladi. Respublikamizda yengil va oziq-ovqat sanoati uskunolari lizingiga bo'lgan talab ham yuqori darajada. Savdo uskunolari lizingi o'zlashtirilmagan bo'lib, uning kelajagi juda ham samarali bo'lishi shubhasizdir. E'tiborni jalb qiladigan masalalardan yana biri shaxsiy avtotransport, uzoq muddatli iste'mol buyumlari lizingini rivojlantirish masalalaridir. Hozirgi vaqtda xalqaro lizing operatsiyalarining turlari bo'yicha to'lovlarning hamma unsurlarini hisob-kitob qilish uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilmagan. "Moliyaviy", "tezkor", "bo'linma lizing", "sublizing", "dabl din" va "savdoga ko'mak" kabilar yuzasidan tuziladigan shartnomalarning namunalarini yaratish va takomillashtirish lozim. Lizingning xalqaro, eksport va import turlariga bitim-shartnomalar tuzish shart-sharoitlarini ishlab chiqish g'oyat zarur bo'lib turibdi. Lizing kompaniyalariga to'lanadigan vositachilik yig'implari, mukofotlarni belgilash uchun yo'riqnomalar ishlab chiqish bozorining mazkur segmentidagi hal etilmagan muammolardan hisoblanadi. Chet el tajribasi lizingdan foydalanishda ayrim mintaqalarga va bozor sektorlariga imtiyozlar berish zarurligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning texnika va texnologiya sohasida orqada qolgan sektorlariga, masalan, qishloq xo'jaligiga, uning mahsulotini qayta ishlashga, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga, maishiy va sanoat elektronikasi, tibbiyot texnikasiga, atrof-muhitni muhofaza

qilish uskunalarini ishlab chiqarishga va boshqa sohalarga lizingdan foydalanish bo'yicha barcha imtiyozlarni berish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyoti sust rivojlangan mintaqalarga soliq sohasida imkoni boricha imtiyozlar berilishi ham foydadan xoli emas. O'zbekiston lizing bozorida "Uzbek Leasing International" AJ QK, "ZAMIN-INVEST" MChJ, "Baraka" universal lizing kompaniyasi, "Sifco International" QK, "Qurilish Lizing" AJ, "UzMed Lizing" AJ, "Uzavtosanoatlizing" samarali faoliyat yuritayotgan AJ LK kabi lizing bozorida milliy va qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bu lizing tuzilmalarini shakllantirishda xorij tajribasidan samarali foydalanildi. Yurtimizga xalqaro lizingni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlar mablag'larini milliy iqtisodiyot uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi uchun kafolatlar;
 - ko'rilgan zararlarning qoplanishi uchun kafolatlar;
 - soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
 - foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
 - milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish hamda olib chiqib ketish imkoniyati;
 - bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
 - xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimining yaratilganligi.
- Mamlakatimiz lizing bozorida yildan-yilga uning ishtirokchilari ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda ular tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning turlari ham kengaymoqda. Mamlakatimizda yetakchi lizing tashkiloti "O'zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasi" bo'lib, bugungi kunda u O'zbekiston lizing bozori ishtirokchilarini birlashtiruvchi eng yirik tashkilot hisoblanadi. Lizing beruvchilar uyushmasida a'zolik ixtiyoriy hisoblanib, o'z ichiga quyidagi kategoriyalarni oladi: Ta'sischilar – uyushmani tashkil qilgan, uyushma a'zolarining umumiy majlisi tomonidan o'rnatilgan tegishli miqdorda hamda tartibda ta'sis badallarini kiritgan yuridik shaxslar. Ta'sischilar ta'sis badallari kiritilgan paytdan boshlab, 220 ular davlat

ro'yxatidan o'tganlaridan keyin uyushma a'zolariga aylanadilar. Ayni paytda uyushma a'zolari "Uzbek Leasing International" AJ QK va "ZAMIN-INVEST" MChJ hisoblanadi. Assotsiatsiyaga a'zolar – uyushma ustavini tan olgan, uyushmaning ustav hujjatlari talablari hamda kirish paytida tasdiqlangan uyushma a'zolarining umumiy majlisi qarorlariga muvofiq kirish badalini to'lagan istalgan yuridik shaxslar bo'lishi mumkin. Faxriy a'zolar — bular uyushma ustavini tan olgan, uyushmaga muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan kirgan mahalliy hamda xalqaro tijorat va notijorat tashkilotlari bo'lishi mumkin. Uyushmaning faxriy a'zolari majburiy tartibda badal kiritmaydilar, biroq bunga huquqlari bor. Faxriy a'zolar uyushma a'zolarining umumiy majlisida qatnashish huquqidan tashqari uyushma a'zolarining barcha huquqlariga ega. O'zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining boshqarish elementlari boshida assotsiatsiya a'zolarining umumiy yig'ilishi bo'lib, undan keyin kordinatsion kengash va bosh direktor turadi. Bosh direktor assotsiatsiya a'zolarining umumiy yig'ilishida mavjud holatlar yuzasidan yig'ilish ishtirokchilariga hisobot berib boradi (3.1-rasm).



3.1-rasm. O'zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining boshqaruv tizimi³⁴

Respublikamizda lizing faoliyati rivojlanishining hozirgi bosqichida lizing munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar mavjud bo'lib, ularda lizing

³⁴Magistrant tomonidan iqtisodiy adabiyotlar asosida tayyorlandi

faoliyatining rivojlanishini rag'batlantiruvchi bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Biroq respublikamiz lizing amaliyoti lizingning istiqboldagi rivojlanishi doimiy monitoringi asosida amal qiluvchi me'yoriy hujjatlar tizimini muntazam takomillashtirish, lizingning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf qilishni talab qiladi.

Chet el investitsiyalari, xususan, xalqaro lizing faoliyatini rag'batlantirishning hozirgi bosqichida asosiy kapitalni lizing asosida sotib olish va yangilash yo'li bilan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarur. Shu maqsadda xalqaro lizingni rivojlantirish, alohida lizing tarmog'ini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim. Xalqaro va milliy lizing kompaniyalari hamda O'zbekistonning barcha mintaqalarida ularning filiallarini tuzish, ularni soliq va yig'imlardan ozod qilish, ularning mustahkamlanishiga imkon berish, shu yo'l bilan lizing operatsiyalarini kengaytirish kerak. Qishloq joylarda bu ishning yo'lga qo'yilishi qishloq mahsulotlarini qayta ishlashga, yangi ish joylarini hosil qilishga yordam beradi. Lizing kompaniyalarini ta'sis etish, ularni tuzish va faoliyatini tashkil etish bozor munosabatlariga o'tish bosqichining eng zarur vazifalaridan biridir. Yurtimizda lizing faoliyatini rivojlantirish uchun unga bir marotabalik va imtiyozli soliq solinishiga erishish eng muhim vazifadir. Lizing operatsiyalari nuqtayi nazaridan soliqqa tortish bazasiga aniqliklar kiritish lizingni keng ommalashtirish arafasidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda lizing operatsiyalarini bemalol rivojlantirish maqsadida bu ishni amalga oshirishning rag'batlantiruvchi me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish ustida ish olib borilmoqda. O'zbekistonda lizingni rivojlantirishni qo'labquvvatlash fondini tuzish maqsadga muvofiq. Rivojlangan mamlakatlarning lizing amaliyoti milliy iqtisodiyotning rivojlanish modeliga muvofiq tarzda taraqqiy etgan.

3.2 Rivojlangan davlatlarda lizing bozorining rivojlantirish tamoyillari hamda ularni O'zbekistonda qo'llashning istiqbolli jihatlari.

Jahon iqtisodiyotida lizing tadbirkorlik faoliyatini va investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy mexanizm sifatida shakllanmoqda, bu esa lizingga bo'lgan e'tibor

va talabning ortishiga zamin yaratmoqda. Lizing faoliyati uchun optimal sharoitlarning yaratilishi esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va lizing yordamida investitsiyalar hajmining oshishiga olib keladi.

Xalqaro lizing munosabatlari ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshlagan. Xalqaro lizing operatsiyalarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etgan:

- ko'pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og'irligi;
- banklar tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi;
- moliyaviy inqirozlar;
- ba'zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi v.b.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ular hamkor mamlakat hukumatining valyuta, bojxona va boshqa tartibga solish qoidalari ta'siri ostida bo'ladi. Xalqaro lizing taraqqiyoti oldidagi to'siqlarni yo'q qilish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida turli mamlakat va xalqaro tashkilotlar mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro moliyaviy lizing bo'yicha (UNIDRUA) Ottava konvensiyasi 1988-yilning may oyida qabul qilingan.

Jahon amaliyotida lizingning taraqqiyoti ko'p jihatdan davlatlarning qonunchiligida mavjud to'siqlar va yaratilgan shart-sharoitlar asosida shakllanib kelmoqda. Bugungi kunda yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan "Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi" (IFLA) va milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi (Leaseurope)ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a'zo mamlakatlar milliy qonunchiligini o'rganish va taqqoslash;
- barcha huquqiy, soliq va moliyaviy masalalarni hal etishda ko'maklashish;
- lizing bitimlarining shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish;
- lizing firmalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish.

XX asrning 60-yillarida "Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi" (IFLA) tashkil topgan, keyinchalik uning tarkibiga ko'plab moliya va lizing tashkilotlari

qo'shilgan. Bugungi kunda uning a'zolari soni 25 ta lizing tashkilotlaridan iborat bo'lib, har bir davlat faqat bitta lizing tashkiloti bilan a'zolikka qabul qilinishi mumkin. IFLA a'zolari muhim bo'lgan Xalqaro kredit institutlari bilan uzviy aloqalarga ham ega bo'lishadi. "Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi" (IFLA)ga a'zo bo'lish uchun quyidagi talablarni bajarish lozim:

- lizing tashkiloti kredit va lizing asosida moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lishlari lozim;
- barqaror moliyaviy tizimga ega bo'lishi;
- lizing tashkilotlari o'z faoliyati, kuch-g'ayrati bilan assotsiatsiya faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashishi talab qilinadi.

"Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi" (IFLA) o'zining asosiy maqsadi sifatida, a'zolari o'rtasida forumlar tashkil etish va bu bilan ular o'rtasida o'zaro g'oyalar, bilimlar, malaka va ma'lumotlar almashinuviga zamin yaratishga qaratgan. Bunday o'zaro almashinuvlar tomonlar manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

Assotsiatsiya o'z faoliyati doirasida a'zolari faoliyat doirasi, ularning moliyaviy natijalari va shu kabi boshqa ma'lumotlarni o'rganib boradi hamda o'z a'zolari faoliyatini qiyosiy baholaydi. Lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida tadbirkorlar uchun qulay bo'lgan lizing xizmatlarini yaratish hamda ularga shu yo'l orqali yangi zamon talablariga javob beradigan texnika va texnologiyalarni yetkazib berish lozim.

Xalqaro amaliyotda lizing o'zining boshqa turdagi investitsiyalardan qulayligi bilan birmuncha ajralib turadi. Shunday qulaylikka ega bo'lgan lizing turlaridan biri bu "double din" bo'lib uning afzalligi ikki va undan ortiq davlatlarning soliq imtiyozlaridan yaxlit foydalana olish imkoniyati bilan izohlanadi. Masalan, XX asrning 80-yillarida xalqaro lizing amaliyotida qator samolyotlar aynan "double din" asnosida lizingga berilgan. Bu jarayon AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida amalga oshirilgan. Agarda lizing beruvchi mulk huquqida bo'lgan holatda Buyuk Britaniya soliq tizimiga ko'ra birmuncha qulayliklari mavjud bo'lgan, AQSh soliq tizimiga ko'ra lizing beruvchi bunday

holatda zarar ko'rgan, ularda lizing beruvchi ko'p jihatdan mulkni boshqarish huquqida bo'lishi iqtisodiy jihatdan samarali hisoblangan. Shunday qilib lizing kompaniyasi Buyuk Britaniyadan samolyotlarni sotib olishgan va ularni AQSh lizing kompaniyalariga lizing hamda ijaraga berishgan, ular o'z navbatida mahalliy havo yo'llariga bu samolyotlarni lizingga berishgan. Kuzatuv tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda bu turdagi lizingdan Fransiya va Germaniya, AQSh va Fransiya, Yaponiya va AQSh kabi davlatlar hamda boshqa ko'plab mamlakatlar foydalanadilar.

Keyingi yillarda ishlab chiqaruvchi va lizing kompaniyalari o'rtasida bitimlar tuzish keng ko'lamli tus olmoqda. Bunday kelishuvlarga tayangan holda ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini sotish bilan birga lizingga taqdim etmoqda.

Bu o'z navbatida uning savdo doirasining yanada kengayishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, lizing tashkiloti bu holatda ishlab chiqaruvchining savdo tarmoqlari orqali lizingni yo'lga qo'ygan bo'ladi, bu turdagi lizing yo'nalishi "savdoga ko'mak" (sales-aid) nomini olgan.

Ma'lum hududlarda lizing operatsiyalarining tarmoq tarkibi shakllanishi ko'p jihatdan o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Misol uchun, Yevropada avtomobil lizingi keng qo'llaniladi, xususan, shaxsiy avtomobillar bilan bir qatorda sanoat ishlab chiqarish uchun maxsus bo'lgan avtomobillar shular tarkibidandir.

Bugungi kunda Yevropa lizing bozorining 50 % gacha bo'lgan hajmi aynan avtomobillarga to'g'ri kelmoqda. Bozorning qolgan qismi ishlab chiqarish texnika-texnologiyalari, dengiz kemalar lizingi, samolyot, kompyuterlar va boshqalar shular jumlasidandir. Yevropaning sharqiy qismida avtomobil lizingining yetakchi lizing tarmog'iga aylanishining asosiy sababi, Yevropaning bu qismida joylashgan avtomobil ishlab chiqaruvchi firmalar o'z mahsulotini sotish uchun yangidan-yangi strategiyalarni qo'llashga majbur bo'lishadi va ayni bu muammoni yechishda lizing optimal variant vazifasini bajaradi. Biroq lizing tushunchasi tarkibiga Yevropada moliyaviy ijara va tezkor ijara tushunchalari kiritilgan. Tezkor ijara bu

ijaraning oddiy ko'rinishi ekanligini ham inobatga olishi lozim. Xususan, Rossiyada faqat moliyaviy ijaraga lizing sifatida qaraladi.

Sharqiy Yevropada ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 20% idan ortiq qismi lizing asosida amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Yevropada amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalarining 78% i Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Gollandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarga to'g'ri keladi, postsotsialistik mamlakatlar bo'lmish Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va qator boshqa davlatlar, shu jumladan, MDH mamlakatlarining bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishi lizingning xalqaro darajada yangi pog'onaga ko'tarilishi uchun zamin yaratmoqda.

AQSh lizing bozorlari hajmi, Yevropa mamlakatlarining jami lizing operatsiyalaridan birmuncha yuqoriligi va nisbatan rivojlanganligi bilan xarakterli hisoblanadi. Yevropa va AQSh mamlakatlarida lizingning kuchli rivoj topishi bu hududlarda tadbirkorlik faoliyatlarining ko'p jihatdan qo'llab-quvvatlanganligi va bu tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalarning katta qismi lizing mexanizmi orqali amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Albatta, lizingdan foydalanish uchun imtiyozli soliq tizimi bo'lishi shart emas, bugungi jahon amaliyoti soliq tizimining o'zi uning rivojlanishi uchun yetarli ekanligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatda lizingning rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi omillar:

- normativ qonun bazasi;
- makroiqtisodiy sharoit, investitsion bozor holati (investitsion imtiyozlar, bank foiz stavkasi, soliqqa tortish mexanizmi, inflyatsiya v.b.);
- buxgalteriya hisob tizimidan foydalanish.

G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya) lizingni tartibga solishning maxsus qonunlarini qabul qilishmagan, u oddiy "tijorat huquqi" asosida tartibga solib turiladi. Fransiya, Portugaliya, Shvetsiya davlatlarida lizing munosabatlari maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Fransiya, Belgiya va Italiya davlatlari iqtisodiy nuqtayi nazardan mulkdor (option lizingning shart bo'lgan belgisi) konsepsiyasiga tayanishadi. Boshqa davlatlarda (Buyuk Britaniya, Irlandiya, Gollandiya, shuningdek AQSh) esa lizing

munosabatlari yuridik nuqtayi nazardan mulkdor konsepsiyasiga tayanib ish ko'rishadi. Yana bir guruh davlatlar o'zining qonunchiligida ushbu ikkala konsepsiyani mujassam qilgan.

Belgiya, Italiya va Fransiya davlatlarida lizing shartnomasi muddatining tugashi bilan lizing obekti lizing shartnomasida kelishilgan narxda sotilishi shart hisoblanadi (opcion), Buyuk Britaniya va AQShda opcion operatsiyasi lizingning shartli belgisi hisoblanmaydi, shartnomada kelishilgan holda lizing muddati tugashi bilan lizing obektini qaytarish yoki sotib olish mumkin. Germaniya, Shvetsariya davlatlarining qonunchiligi opcion operatsiyalarini oldi-sotdi mexanizmi asosida lizing obekti to'lovlarni "maxsus bo'lib to'lash" yo'li bilan amalga oshirish imkonini beradi. Ya'ni to'g'ridan to'g'ri tomonlar o'rtasida lizing munosabatlari o'rnatilgan holatda lizing obyekti lizing beruvchiga qaytarilsa, oldi-sotdi mexanizmi asosida to'lovlarni "maxsus bo'lib to'lash" yo'li bilan amalga oshirilsa, lizing obektining egalik huquqi kelishuv imzolangan paytdan boshlab lizing oluvchiga o'tadi.

Fransiya va Buyuk Britaniyada ko'plab kelishuvlarga lizing sifatida qaraladi, Germaniyada esa bu kelishuvlar ijara mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. Fransiya lizing shartnomasida uning muddati tugagach opcion (lizing obektini qoldiq narxda sotib olish huquqi) operatsiyasini amalga oshirish shartligi uni ijara-kredit kelishuvlari qatoriga qo'shadi. Shunisi e'tiborliki, ijara-kredit munosabatlari lizingdan farqli ravishda davlat tomonidan o'ziga xos qonunchilik asosida tartibga solinadi. Davlatlar o'rtasidagi bunday farq ular o'rtasida "double din" operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda Fransiya qonunchiligi ishlab chiqaruvchiga mahsulotini lizingga berish imkoniyatini qoldirmagan.

Lizing munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishda har bir davlat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Lizingga bank faoliyatining an'anaviy xizmat turlaridan biri sifatida qaraladigan davlatlarda (Italiya, Fransiya), davlat organlari nafaqat bank tizimini, balki ulardagi lizing mexanizmini ham nazorat qilishadi.

Ko'plab boshqa davlatlarda lizing faoliyatini boshqarish birmuncha soddalashtirilgan ko'rinishga ega. Xususan, Germaniya, Daniya va Gollandiya davlatlarida lizing faoliyati ortiqcha cheklovlersiz kechmoqda. Kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, lizing faoliyatining rivojlanishiga qonunchilikdan ko'ra, ko'proq davlatning makroiqtisodiy muhiti ko'p ta'sir etadi. Bu jarayonda davlatning investitsiyalar oqimini qo'llab-quvvatlashi va lizingga uning muhim ko'rinishi sifatida qarashi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Lizing faoliyati uchun eng maqbul sharoitlar Germaniya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Norvegiya va AQSh davlatlarida yaratilgan. Masalan, Irlandiyada lizingni rag'batlantirish maqsadida lizing tashkilotlariga davlat subsidiyalari, tezlashtirilgan amortizitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va boshqa ko'plab qulayliklar taqdim etilgan. Shular natijasida Irlandiya bugungi kunda samolyotlar lizingining yetakchisiga aylangan. Mamlakatda Xalqaro moliyaviy xizmatlarni taqdim etish markazi va ko'plab boshqa yirik tashkilotlar joylashgan.

Yana boshqa bir davlatlarda lizing faoliyatining rivojlanishiga ko'plab cheklovlarning mavjudligi to'siq bo'lmoqda. Masalan, Gretsiyada ko'chmas mulk, yuk tashish avtomobillari va avtobuslar lizinggi taqiqlangan. Davlat tomonidan amortizatsiya normalarining kuchli nazoratga olinganligi qo'shimcha muammo yaratgan. Buxgalteriya hisobini standartlashtirish xalqaro komiteti (JASS) tomonidan lizing hisobi yuzasidan standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartlar Gretsiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Gollandiya, Irlandiya, AQSh, Yaponiya va boshqa davlatlar tomonidan qabul qilingan. Lizing obyektiga egalik qilish huquqini belgilashda iqtisodiy tamoyillarni standartlar asosi qilib olishgan. Lekin Sharqiy Yevropaning ayrim mamlakatlari, shuningdek, Yevropa ittifoqi komissiyasi va "Leaseurope" federatsiyasi egalik huquqining yuridik prinsiplariga tayanishadi. Iqtisodiy tamoyillarga ko'ra lizing obekti lizing oluvchining balansida aks etishi lozim bo'lsa, yuridik prinsiplarga ko'ra bu huquq lizing beruvchida qoladi. Aynan egalik huquqida mavjud bo'lgan farqlar tufayli davlatlar o'rtasida buxgalteriya

hisobida, amortizatsiyalar va soliqlarni hisoblash tartibida farqli tomonlar ko'zga tashlanadi.

Loyihalarni ko'rib chiqishda mutaxassislar mahalliy xomashyoni qayta ishlash, ularni tayyor raqobatbardosh mahsulotga aylantirish, faoliyati import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan rentabelli yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning paydo bo'lishi, zamonaviy kommunikatsiya tizimlari va ishlab chiqarish infrastrukturasi rivojlanishi, iste'mol bozorini birlamchi zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish bilan bog'liq loyihalarni avfzal ko'radilar.

Qishloq xo'jaligini zamonaviy, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik mashinasozligini rivojlantirish uchun, jumladan, etakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida zarur sharoitlarni yaratish, yetkazib berilayotgan traktor va hosilni yig'uvchi mashinalar uchun hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 486-sonli qaroriga³⁵ asosan "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasi tuzildi. Davlatimizda qulay lizing muhitini shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish va takomillashtirish lozim:

- lizing tashkilotlari uchun davlat subsidiyalarini ko'paytirish;
- tezlashtirilgan amortizatsiyalarni keng taqdim etish mexanizmini yaratish;
- soliq imtiyozlarini ko'paytirish orqali ishtirokchilarini rag'batlantirish lozim.

Davlatimiz lizing sohasini xalqaro lizing amaliyotining yutuqlariga tayangan holda shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- Mamlakatimiz lizing infrostrukturasiga joriy qilish mumkin bo'lgan yana bir xalqaro amaliyotda qo'llaniluvchi lizing turi bu "lizing liniyalari" bo'lib, bunda lizing ko'p jihatdan "kredit liniyalari"ga o'xshash bo'ladi va lizing oluvchiga

³⁵www.lex.uz –Adliya vazirligining rasmiy sayti.

takror lizing olish imkoniyatini hech qanday qayta rasmiylashtirish, qiyinchiliklarsiz amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Buning uchun lizing tashkilotlari va lizing obektlarini yetkazib beruvchi o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilishi talab etiladi;

- xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan "double din" lizing mexanizmidan, mamlakatimiz lizing tashkilotlarini xalqaro lizing bozorlariga olib chiqishda keng qo'llash lozim. Bu borada "double din" operatsiyalari lizing tashkilotlarimizga yangi lizing bozorlariga chiqish, yangi hamkorlarni topish, lizing tarkibini yanada boyitish imkonini beradi;

- xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan lizingning yana bir noyob turi bu "savdoga ko'mak" (sales-aid) bo'lib, respublikamizda avtolizingni "sales-aid" lizingi asosida yangi bosqichga olib chiqish mumkin;

- Markaziy Osiyo va unga qo'shni davlatlar hududlarida lizing operatsiyalarining tarmoq tarkibini, davlatimiz avtomobil sanoatiga tayangan holda shakllantirish va olib chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan jahon amaliyotining boy tajribasini mamlakatimiz lizing bozorlarini rivojlantirishda joriy qilish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun xalqaro amaliyotlarda keng qo'llanilayotgan lizing turlari, xususan, "savdoga ko'mak" (sales-aid) lizing operatsiyalarini mamlakatimizda amalga oshirish uchun ularning qonuniy asoslarini belgilash lozim.

III Bob bo'yicha xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, lizingni joriy etish va uning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida keng qo'llanilishi davlatning ishonchli o'sishida garov bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning lizing to'g'risidagi qonunlariga kiritilgan yangi o'zgartirishlar bozor infratuzilmasi qulay investitsiya iqlimini vujudga keltiribgina qolmay, investorlarning keng miqyosda investitsiya kiritishlariga xam zamin yaratdi. Eng muhimi, ana shu ishlarning samarasi tufayli mamlakatimizda tashkil etilgan lizing kompaniyalari faoliyatlarida o'zgarishlar

kuzatildi. Ayni paytda, mazkur kompaniyalar bilan birgalikda mamlakatimizning bir qator yetakchi tijorat banklarida lizing amaliyotlari yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida, yurtimizda yangi bozor infratuzilmasining rivoj topishi va sog'lom raqobat vujudga kelishi uchun qulay muhit yaratdi. Muhimi, endilikda mijozlar lizingga yangi texnologiyadan tortib, kompyuter va qishloq xo'jaligi texnikalarigacha xarid qilish imkoniga ega bo'lishdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining, umuman, jahon iqtisodiyotining istiqboldagi taraqqiyoti, asosan, investisiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liqligini bugungi kunda anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investisiyalarni, xususan, chet el investisiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda otkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim omiliga aylanganligini tushunib yetishimiz qiyin mas.

Dunyo tajribasining ko'rsatishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investisiyalarni, xususan, turli sohalardagi investisiya loyihalarini samarali amaliyotga tadbiq etish bilan bog'liq ekanligida namoyon bo'ladi. Amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarining hajmi va miqdoriga ko'ra iqtisodiyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosaga kelish mumkin.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida faol va aniq yo'naltirilgan investisiya siyosatini yuritishning muhim omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Magistrlik dissertatsiyasida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, innovatsion rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida lizing sektorini samarali rivojlanishi omillari mavjud, ular qatorida biznes va xususiy tadbirkorlik uchun zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan talab ortib borayotganligini keltirib o'tish mumkin. Mamlakatning barcha sohalarini faol tarzda modernizatsiya qilish, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik-tikuv va boshqa sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari olib borilmoqda, transport-kommunikatsion loyihalar, avtotransport infratuzilmasi qurilishi va rekonstruktsiyasini amalga oshirishning dolzarbligi ortmoqda.

Ikkinchidan, lizing kompaniyalari boshqaruv apparati strukturasiga asosiy talabining operativligidadir. Lizing kompaniyalari faoliyat olib borayotgan boshqaruv organlari: "Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi", "Kuzatuv kengashi", "Ijroiya organi-boshqaruvi" strukturalari boshqaruv iqtisodini ta'minlashi va samarali ishlashi lizing xizmatlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Buning ma'nosi shundaki, boshqaruv faoliyati natijasida lizing kompaniyasiga keladigan samara boshqaruv organiga bo'lgan xarajatlarning minimalligi orqali erishiladi. Shu bois bu jarayonda, lizing kompaniyalari boshqaruv organi strukturasini shunchalik darajada egiluvchan va oddiy bo'lishi kerakki boshqaruv sistemasida qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda operativ faoliyatyuritishi ishonchliligi ortishi lozim. Iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun boshqaruv nazoratini kuchaytirish lozim. Lizing sohasini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri lizing beruvchilarning moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalana olishidir. Bu esa o'z navbatida, lizing talabnomalari ko'rib chiqilishining tezkorligi va xizmatlar qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, lizing kompaniyalari tomonidan erkin konvertatsiya qilinuvchi valyutalarda moliyalashtirish hajmlarini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'rixorijiy kreditlarni jalb qilish masalasi ijobiy hal etilishini talab etadi.

Uchinchidan, lizing kompaniyalari boshqaruv organlari strukturasiga xizmat ko'rsatish xarakterining o'zi, uning sohalari xususiyatlari, shuningdek boshqaruvning avtomatlashganligi darajasi, ishchilar malakasi, ular mehnatining samaradorligi, xizmatchilar soni va boshqaruvchi tomonidan ularni nazorat qila olish imkoniyatlarini oshiradi.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyoda lizingni rivojlantirish loyihasi ekspertlari tomonidan O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiqotiga asoslanib qayd etish mumkinki, mamlakat ishlab chiqarish mehnat resurslarini asosiy qismi qishloq xo'jalik sektoriga to'g'ri kelishi munosabati bilan eng asosiy zaruriyat qishloq xo'jalik texnikasi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalariga to'g'ri kelishi kuzatiladi. Yengil va oziq-ovqat sanoati uskunolari lizingga bo'lgan talab ham yuqori darajada. Savdo uskunolari lizingi o'zlashtirilmagan bo'lib, uning kelajagi juda ham samarali bo'lishi shubhasizdir. E'tiborni jalb kiladigan masalalardan yana biri shaxsiy avtotransport, uzoq muddatli iste'mol buyumlari lizingini rivojlantirish masalalaridir. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish topshirig'i berilgan. Shundan kelib chiqib, paxtachilik va g'allachilikdan tashqari chorva, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan texnika, texnologiya va uskunalarni lizingini rivojlantirishimiz zarur.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan lizing xizmatlari kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, xususiy tadbirkorlikni kengaytirish va uning asosida ixcham ishlab chiqarishni tashkil etishga mablag' sarflashning samarali mexanizmi ekani ta'kidlash mumkin. Lizing moliyaviy ijara sifatida sarmoyadorlar uchun ham, tadbirkorlar uchun dam foydalidir. Chunki lizing ko'p pul mablag'larini jalb etmasdan ishlab chiqarishni kengaytirishni ta'minlash va uni yangilashga imkon beruvchi ishlab chiqarish sektorini texnik qayta qurollantirishning samarali vositasi ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Oltinchidan, O'zbekistonda lizing jarayonlarining rivojlanishi uchun qulay

muhit, ya'ni takomillashgan qonunchilik bazasi hamda soliq imtiyozlari yaratilganligi, mazkur faoliyat turini shiddat bilan rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Qayd etish joizki, respublikada lizing sohasi tezkor sur'atlarda sezilarli o'sish salohiyatini namoyon etmoqda.

Yettinchidan, O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi istiqbolli vositalardan biriga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda lizing bozorini yanada rivojlanishiga, lizing kompaniyalarini o'zaro raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun quyidagi takliflarni keltirish o'rinlidir:

Birinchidan, lizing bozorida lizingning iste'mol lizing, operativ lizing, ikkilamchi lizing, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish kabi turlariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni rivojlanishiga iqtisodiy-huquqiy jihatdan muhitni paydo qilish, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bozori hisobidan, xalqaro kapital bozoriga chiqish, qonunchilik normativlariga tegishli o'zgarishlarni kiritish lozim.

Ikkinchidan, lizing xizmatlarini boshkarishda yetuk mutaxassislar, xususan moliyaviy menejrlarni tayorlash va ularni malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda lizing xizmatlari samaradorligini ta'minlashda boshqaruvdagi xarajatlar va daromadlar tizimini muntazam e'tiborga olib borish kerak.

Uchinchidan, lizingni moliyalashtirish manbalarini yetarli darajada moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda banklar rolini oshirish lozim.

To'rtinchidan, lizing bozori infratuzilmasini rivojlanish darajasi past bo'lgan sohalar bo'yicha shakllantirish va lizing xizmatlari ko'rsatayotgan kompaniya va boshqa moliyaviy tashkilotlarda xalqaro sifat tizimini joriy etilish darajasini nazorat qilish.

Beshinchidan, lizing xizmatlariga doir yaxlit axborot almashuv tizimini shakllantirish hamda lizing xizmatlari ichida xalqaro lizing ulushini oshirish.

Oltinchidan, lizingning quyidagi sohalardagi faoliyati samaradorligini oshirish va qo'llab-quvvatlash:

- meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash bo'yicha lizingni rivojlantirish;

- chorvachilik bo'yicha lizingni rivojlantirish;

- temir yul kommunikatsiya va qishloq yo'l qurilishlari lizingini rivojlantirish;

- to'qimachilik sanoati lizingini rivojlantirish;

- xizmat ko'rsatish va servis sohasi lizingini rivojlantirish;

Ushbu dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda lizing bozorini rivojlantirishning muhim omili bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. -25 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2016 y. – 400 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni. –T.: «O'zbekiston», 1999
4. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 2014-yil 10-dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni. 28.08.2002 y., PF № 3122-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil15-apreldagi PQ-2164-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda PQ-2454-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrda PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 23-dekabrda PQ-2697-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-yanvarda PF-4931-sonli "Urgut", "G‘ijduvon", "Qo‘qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31-martda PF-4996-sonli "O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevralda PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

16. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. 36b.

17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. – T.: “O‘zbekiston” 2013. 63 b.

18. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”.-T.: “O‘zbekiston”, 2014. 64 b.

19. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir.-T.: O‘zbekiston. 2015. 74 b.

20. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yoʻl ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi.-T.:2016.72 b.

21. Karimov I.A. Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida. -T.: “Oʻzbekiston”, 1995. 200 b.

22. Karimov I.A. Vatanravnaqiuchunharbirimizmasʼulmiz.-T.: “Oʻzbekiston”, 2001. -157 b.

23. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: “Oʻzbekiston”, 2010. -57 b.

24. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017 y. -48 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.:“Oʻzbekiston” NMIU, 2017 y. -56 b.

26. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. –T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017 y. -104 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy toʻplamlar

27. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Москва: “Юрист”, 1999. – 368 с.

28. Юлдашев М.А. Ўзбекистонда лизинг операцияларининг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш йўналишлар: И.ф.н. ...дис. Автореф. –Т.: БМА, 2008. -21 б.

29. Leasing and profitability: Empirical evidence from the airline industry, Sylvain Bourjade, Regis Huc, Catherine Muller-Vibes, Transportation Research Part A 97 (2017) 30–46
30. A mathematical programming model for aircraft leasing decisions, Wei-Ting Chen et al, Journal of Air Transport Management, Volume 69, June 2018, pages 15-25
31. Ғозибеков Д.Ғ., Сабиров О.Ш., Мўминов А.Ғ., Қулжонов О.М. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. –Тошкент. “Fan va texnologiya”, 2004. 50-бет.
32. Газман В.Д. «Лизинг: теория, практика, комментарий» -М.: Фонд «Провая культура», 1997. –с.30.
33. Деверюкс Д., Робертс Б. Прямые иностранные инвестиции и благосостояние в странах с переходной экономикой: на примере Центральной Азии. Экономическое обозрение. 1998, 3 ном, 49 стр.
34. Собиров О.Ш “Лизинг в Узбекистане: проблемы и решения” “Рынок,денги и кредит”, 2012-№4
35. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatining roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2005.
36. Kayumov R., Xojimatov R. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010.188 b.
37. Лоренс Дж. Г., Майкл Д. Дж. Основы инвестирование.-М.: “Дело”, 1997. Стр. 10
38. Madumarov H. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari. // Bozor pul va kredit. Toshkent: 2010. №5. 25-27 b.
39. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. 608b.
40. Maqsudov F., Anorqulova I. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita xorijiy investitsiyalar: ishlarning borishi va istiqbollari. //Bozor,pul va kredit. 5-son, 1997.6-b.

41. Nasretdinov S. Jozibador investitsion muhit-iqtisodiy yuksalish negizi. //Bozor pul va kredit. Toshkent: 2007. №7. 9-10 betlar.
42. Oblomuradov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: i.f.n.ilmij darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent:O'zMU, 2001. – 24bet.
43. Raimjonova M.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Toshkent: Extremum-press, 2013.176 b.
44. Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z “Qo'shma korxonalar geografiyasi”.Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006.
45. Xaydarov N. X., Ubaydullaeva S.F. “Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari”. Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.
46. Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisodfanlaridoktoriilmiydarajasiniolishuchunyozilgandissertatsiya. – T.: 2003. 29b.
47. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 14-15-b.
48. ШарпУ., АлександрГ., БейлиДж. ИНВЕСТИЦИИ: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2003. – XII, С.1.
49. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. Ростов н/Д.: Феникс, 2008. – 272 с.
50. Chulliev Z. “BOZOR, PUL va KREDIT”, “Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratib berishda qonunchilik tizimi, uning ahamiyati”- 01/2013 (188), 32 b.
51. Коршунова Н.М., Шабалин М.Б. «Лизинг». Учебный пособия. М.: Юнити: 2001 г. Ст. 68.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

52. O'zbekistonda qurilish. Statistik to'plam. –T.:Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, 2017. -177 b.
53. Финансово-кредитный словарь. Т. 1. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - С. 470.

IV. Internet saytlari.

- <http://www.sciencedirect.com>
- <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
- <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi)
- <http://www.ula.uz> (O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasi)
- <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
- <http://www.mfer.uz> (O'zbekiston Respublikasi Tashqisavdovazirligi)
- <http://www.mineconomy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
- <http://www.tfi.uz> (Toshkent Moliya instituti)